

# XALQ IJODIYOTINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI



Tarmoq markazi

- ❖ “Xalq ijodiyoti” (turlari bo‘yicha) yo‘nalishi
- ❖ dotsent Toshmatov O‘rozali Gafurovich

**Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy ta’lim ,fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 25 avgustdagи 391--sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.**

**Tuzuvchi:** O‘zDSMI “Cholg‘u ijrochiligi” kafedrasи professori Toshmatov O‘rozali

**Taqrizchilar:** Parij milliy oliy musiqa va raqs koncervatoriyasi professori Dylan Corlay

O‘zDSMI “Folklor ijrochiligi” kafedrasи mudiri, dotsent Axmedova Oygul

## MUNDARIJA

I.	ISHCHI DASTUR.....	4
II.	MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....	15
III.	NAZARIY MATERIALLAR.....	21
IV.	AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI.....	88
V.	GLOSSARIY.....	107
VI.	KEYSLAR.....	110
VII.	ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	113
VIII.	TAQRIZLAR.....	

# **I. ISHCHI DASTUR**

## I. ISHCHI DASTUR

### Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdagi tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyatga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

### Modulning maqsadi va vazifalari

#### **“Xalq ijodiyotining zamonaviy tendensiyalari” modulining maqsadi:**

Xalq ijodiyotining jamiyatimiz ijtimoiy hayotidagi o‘rnini aniqlash, ushbu merosning yer yuzida barqaror taraqiyotni ta’minalashdagi o‘rmini tushuntirish orqali uni saqlash va kelgusi avlodlarga yetkazish jarayoniga, uning ta’lim tizimida o‘rganilayotganligi misolida yangi zamonaviy shakl va uslublarni amaliyatga samarali tatbiq etish masalalariga pedagog kadrlarni jalb etish.

#### **“Xalq ijodiyotining zamonaviy tendensiyalari” modulining vazifalari:**

- xalq ijodiyotining dunyoda barqaror taraqqiyotni ta’minalashdagi o‘rmini ko‘rsatish;
- XX asrning so‘nggi choragi va XXI asr boshlarida xalq ijodiyotini muhofaza qilish borasida amalga oshirilgan ishlarni tahlil etish;
- O‘zbekiston hududida mavjud bo‘lgan xalq ijodiyotining turlari, janrlari bilan tanishish;
- xalq ijodiyoti muhofazasi bilan bog‘liq xalqaro va milliy qonunchilik, huquqiy-normativ hujjatlarni o‘rganish;
- xalq ijodiyotining ta’lim muassasalarida o‘rganilishi va oliy ta’lim tizimida ularni qo‘llash uchun pedagog kadrlarni tayyorlashni ta’minalashga qaratilgan faoliyatni tashkil etish.

## **Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar**

**“Xalq ijodiyotining zamonaviy tendensiyalari”** modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

### **Tinglovchi:**

- xalq ijodiyotining mazmun, mohiyatini;
- xalq ijodiyoti muhofazasi borasida YUNESKO tomonidan va O‘zbekistonda qabul qilingan qonun hujjatlari va huquqiy-normativ hujjatlarni;
- xalq ijodiyotining sohalari, turlarini;
- xalq ijodiyoti bilan bog‘liq xalq ijodiyoti janrlarini;
- xalq ijodiyotining ta’lim muassasalarida o‘rganilishiga qaratilgan maqsad va vazifalarni **bilishi** lozim.
- sahna san’ati (Art performing) bilan bog‘liq xalq ijodiyotini tasniflash;
- xalq ijodiyoti muhofazasi borasida tegishli mamlakatlarda amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil etish;
- xalq ijodiyotining tegishli sohalari o‘zlashtirilishida xalq ijodiyoti namunalaridan foydalanishni yo‘lga qo‘yish;
- xalq ijodiyoti muhofazasi borasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlardan talabalarni xabardor qilish;
- xalq ijodiyotining zamonga moslashuvi orqali saqlab qolinishi mumkinligini tushungan holda uni ta’lim tizimiga tatbiq etish **ko‘nikmalariga** ega bo‘lishi lozim.
- xalq ijodiyotini o‘zlashtirishda an’naviy uslub va tajribalarni qo‘llash hamda pedagogik faoliyatga tatbiq etish;
- xalq ijodiyotining tegishli yo‘nalishlari va janrlarini o‘zlashtirishda zarur bo‘lgan uslubiy va o‘quv qo‘llanmalarini yaratishda xalq ijodiyotidan samarali foydalanish;
- xalq ijodiyotini muhofaza qilish borasidagi ilg‘or tajribalarni o‘rgangan holda o‘z pedagogik faoliyatiga tatbiq eta bilish;
- zamонавија texnik vositalarni xalq ijodiyotini o‘rganishda qo‘llash;
- xorijiy davlatlarda xalq ijodiyotining ta’lim tizimida o‘zlashtirilishi bo‘yicha amalga oshirilgan tajribalarni o‘quv jarayoniga tatbiq etish;
- xalq ijodiyoti egalaridan ta’lim jarayonida foydalanish **malakalariga** ega bo‘lishi zarur.
- xalq ijodiyotining mohiyatini tushungan holda uni tasniflay olish;
- xalq ijodiyotining tegishli janrlarini va uni o‘zlashtirishdagi an’naviy uslublarni ta’lim tizimiga tatbiq etish;
- folklor musiqiy asarlarini o‘zlashtirish uslublarini talabalarga singdirish;
- xalq ijodiyotining ta’lim tizimida o‘rganilishi borasida ilg‘or mahalliy va xorijiy tajribalardan foydalangan holda mashg‘ulotlarni tashkil etish **kompetensiyalariga** ega bo‘lishi lozim.

## **Modulni tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar**

**“Xalq ijodiyotining zamonaviy tendensiyalari”** moduli hozirgi kunda ta’limning zamonaviy metodlari, axborot kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan. Ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan, shuningdek an’anaviy va zamonaviy o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlari, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o‘tkazish, ijrochilik malakalarini shakllantirish va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

### **Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi**

“Xalq ijodiyotining zamonaviy tendensiyalari” moduli mazmuni o‘quv rejadagi “Xalq ijodiyotida barqaror taraqqiyot va nomoddiy madaniy meros”, “Folklor ijrochilik san’ati tarixi”, “Folklor materiallarini to‘plash va nashr etish metodikasi” o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

### **Modulning oliy ta’limdagи o‘rni**

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar oliy ta’lim muassasalarida xalq ijodiyotining o‘rganilishini ta’minlash, zamonaviy uslublar bilan boyitilgan holda amalda qo‘llash va talabalar bilimini baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

**Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti:**

<b>№</b>	<b>Modul mavzulari</b>	<b>Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat</b>			
		<b>Jami</b>	<b>nazariy</b>	<b>amaliy</b>	<b>ko‘chma</b>
1.	Jahon xalqlarining madaniy hayotida xalq ijodiyotining tutgan o‘rni. Folklor milliy musiqa maktablarining paydo bo‘lishi va rivojlanishi	2	2		
2.	Xalq ijodiyoti targ‘ibotida folklor qo‘sishlarining o‘rni	2	2		
4.	Folklorda tur va janrlar	2		2	
5.	Folklor asarlari strukturasi. Folklor asarlarining zamonaviy talqinlari	2		2	
<b>Jami:</b>		<b>8</b>	<b>4</b>	<b>4</b>	<b>0</b>

## **NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

### **1-mavzu: Jahon xalqlarining madaniy hayotida xalq ijodiyotining tutgan o‘rni. Folklor milliy musiqa mакtablarining paydo bo‘lishi va rivojlanishi. (2 soat)**

Jahon xalqlari madaniy hayotida xalq ijodiyoti. O‘zbekistonda xalq ijodiyotini muhofaza qilish borasida so‘nggi yillarda olib borilayotgan ishlar. Xalq ijodiyotining barqaror taraqqiyotni ta’minlashdagi o‘rni: oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash; an’anaviy davolash amaliyotlari; suv resurslarini boshqarishga oid an’anaviy urf-odat va amaliyotlar. O‘zbekistonda folklor milliy musiqa mакtablarining paydo bo‘lishi va ularning o‘zaro munosabatlari.

### **2-mavzu: Xalq ijodiyoti targ‘ibotida folklor qo‘shiqlarining o‘rni. (2 soat)**

Nikoh to‘yi marosimida xalq qo‘shiqlari. Folklor jamoalari repertuarida xalq folklor qo‘shiqlari. Folklor qo‘shiqlarida an’ana. Folklor qo‘shiqlarida variantlilik. Folklor qo‘shiqlarining janrlari. Folklor qo‘shiqlarining lokal janrlari.

## **AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

Mazkur modul tarkibidagi amaliy mashg‘ulotlar quyida keltirilgan rejalar asosida tashkil etiladi. Amaliy mashg‘ulotlar tinglovchilarning taklif etilayotgan mavzuga bo‘lgan munosabatini yozma, og‘zaki javob yoki amaliy ijro ko‘rinishlarida ifoda etishlari uchun imkon yaratishi ko‘zda tutilgan. Amaliy mashg‘ulotlardagi rejelashtirilgan masalalar pedagog tomonidan maxsus tayyorlangan tarqatma materiallar, yozma manbalar, qo‘srimcha vositalar, shuningdek orkestr yoki xor jamoalari bilan amaliy ishslash orqali tinglovchilarning faolligini oshirish uchun xizmat qilishi kerak.

### **1-amaliy mashg‘ulot: Folklorda tur va janrlar. (2 soat)**

Xalq og‘zaki ijodining janrlari. Xalq musiqa ijodi va uning janrlari. Ijro san’atida folkloarning o‘rni . Sahnaviy ijro san’atining janrlari. Musiqa. Maqomlar. Xalq folklori.

### **2- amaliy mashg‘ulot: Folklor asarlari strukturasi. (2 soat)**

Xalq og‘zaki ijodiga xos janrlarning strukturasi, ijrochilik san’atiga xos xalq musiqiy ijodiga tegishli janrlarning strukturalari, urf odat, marosimlar va bayramlarning mohiyati, strukturasi bo‘yicha amaliy topshiriqlar berilib, birgalikda muhokama uyuşhtiriladi. Xalq musiqa ijodiyotini xonandalik san’ati vositasida targ‘ib etish masalalari. Avvaldan rejalaştirilgan holda tinglovchilar orasida xalq ijodiyotining tegishli sohasi bo‘yicha o‘z ma’lumotlarini taqdimot (prezentatsiya) ko‘rinishida taqdim etadi. Tinglovchilar tomonidan sohaga oid bo‘lib, qamrab olinmagan tur va janrlar muhokama etiladi va to‘ldiriladi. Nomoddiy madaniy merosning ro‘yxatlariga kiritilgan nomzodlar o‘rganiladi, yana qaysi nomzodlarni ro‘yxatga kiritish yoki qicharib tashlash, boshqa ro‘yxatga o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

## O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash), ko‘chma mashg‘ulotlar;
- davra suhbatlari (muammo yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

## **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

### **II. Normativ-huquqiy hujjatlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-sonli Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlucksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr

“Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 avgustdagи “O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 20 dekabrdagi “Madaniy meros obektlarini muhofaza qilish” to‘g‘risidagi Qarori.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 4 fevraldagi “Milliy raqs san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 maydagi “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF–6000-son Farmoni.

### **SH. Maxsus adabiyotlar**

1. SH.Turdimov. Epos va etnos. Toshkent, O‘zbekiston nashriyoti 2012 y.
2. T.Mirzayev. Hodi Zarif suhbatlari. Toshkent, 2013 y.
3. T.Mirzayev. Xalq baxshilarining epik repertuari. Toshkent, Fan nashriyoti, 1979 y.
4. M.Murodova. Folklor va etnografiY. Toshkent, 2008 y.
5. J.Eshonqulov. Folklor: obraz va talqin. Qarshi, Nasaf nashriyoti, 1999 y.
6. M.Jo‘rayev, J.Eshonqulov. Folklorshunoslikka kirish. Toshkent, 2017 y.
7. O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosi ro‘yxati. Hilol nashr MChj, Toshkent, 2016 y.
8. Intangible cultural heritage of Uzbekistan (O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosi). ICHCAP, IICAS, YUNESKO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Milliy Komissiyasi nashri. Mega Basim, 2017 y. <https://www.unesco-ichcap.org/publications-archive/intangible-cultural-heritage-in-uzbekistanuzbektili/>
9. Nomoddiy madaniy meros va barqaror rivojlanish. YUNESKO nashri
10. Nomoddiy madaniy meros va gender masalasi. YUNESKO nashri
11. What is intangible cultural heritage. Published by UNESCO and ICH
12. Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage. Published by UNESCO and ICH
13. Implementation of the Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage. Published by UNESCO and ICH
14. Working towards a Convention. Published by UNESCO and ICH
15. Questions & Answers. Published by UNESCO and ICH
16. Identification and inventory of intangible cultural heritage. Published by UNESCO and ICH
17. Domains of intangible cultural heritage. Published by UNESCO and ICH

18. Fact sheets. Published by UNESCO and ICH

## **II. Internet saytlar**

1. <http://edu.uz>
2. <http://lex.uz>
3. <http://bimm.uz>
4. <http://ziyonet.uz>
5. <http://www.dsni.uz>
6. <http://music.edu.ru/catalog>
7. <http://artyx.ru/>
8. <https://www.unesco-ichcap.org/publications/>
9. <https://www.ich.uz>

## **II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI**

## **MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI**

### **“Nima uchun?” texnologiyasi.**

Nima uchun sxemasi mavjud muammoni keltirib chiqargan sabablarini aniqlashga yordam beruvchi sxemadir. Sabab-oqibat qonuniga asosan muammoni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlamay turib muammoni hal etish qiyin.

Muammoni yechimini topish uchun uni keltirib chiqargan sabablarni aniqlash va yo‘qotish talab etiladi. Tinglovchilarda sabab-oqibat qonuniyati asosida fikr yuritishni tarbiyalash muhim. Ushbu sxema tinglovchilarda aynan ana shu xususiyatni rivojlantiradi. Tinglovchilarda tizimli, ijodiy, tahliliy mushohada qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

**NIMA  
UCHUN?**




muammoni aniqlash, uni  
hal etish, tahlil qilish va  
rejalashtirish jarayonida  
qo‘llash mumkin

### **“Nima uchun”? sxemasiga asosan tinglovchilar faoliyatini tashkil etish ketma-ketligi**

#### **1-bosqich**

Tinglovchilarni “Nima uchun”? sxemasini tuzish qoidalari  
bilan tanishtirish



#### **2-bosqich**

Yakka tartibda (juftlikda) muammo shakllantiriladi. Nima uchun?  
so‘rog‘i bilan strelka chiziladi va savolga javob yoziladi. Qayta-qayta  
“nima uchun” degan savol berib boriladi. Muammoni keltirib chiqargan  
ildiz yashiringan sababi topilguncha davom ettiriladi.



### **3-bosqich**


Tinglovchilar kichik guruhlarga birlashtiriladi, o‘z sxemalarini taqqoslashga va qo‘srimcha kiritishga imkon yaratiladi. Umumi sxema jamlanadi.



### **4-bosqich**

Natijalar taqdimoti uysushtiriladi. Faoliyat natijalari baholanadi.

#### **«Nima uchun?» texnologiyasining sxemadagi ko‘rinishi**



#### **“Nima uchun”? sxemasini tuzish qoidalari**

1. Qanday piktogrammadan foydalanishni o‘zingiz hal etasiz.
2. Mulohazalarning sxematik ko‘rinishi qanday bo‘lishini o‘zingiz hal etasiz.
3. Har bir strelka fikr yo‘nalishini ko‘rsatishi lozim.

#### **“VEYER” texnologiyasi.**

Bu texnologiya murakkab, ko‘p tarmoqli, mumkin qadar, muammo xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan.

Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir yo‘la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy

tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

Bu interaktiv texnologiya tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘z g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “VEYER” texnologiyasi umumiy mavzuni ayrim tarmoqlarini muhokama qiluvchi kichik guruhlarning har bir qatnashuvchining, guruhning faol ishlashiga qaratilgan.

“VEYER” texnologiyasi mavzuni o‘rganishning turli bosqichlarida qo‘llanilishi mumkin:

- boshida: o‘z bilimlarini erkin faollashtirish;
- mavzuni o‘rganish jarayonida; uning asosiyalarini anglab yetish;
- yakunlash bosqichida; olingan bilimlarni tartibga solish.

Asosiy tushunchalar quyidagilar:

Aspekt (nuqtai nazar) bilan predmet, hodisa, tushuncha tekshiriladi.

Afzallik - biror narsa bilan qiyoslangandagi ustunlik, imtiyoz.

Fazilat-ijobiy sifat.

Nuqson-nomukammallik, qoidalarga, mezonlarga nomuvofiqlik.

Xulosa-muayyan bir fikrga, mantiqiy, qoidalar bo‘yicha dalildan natajaga kelish.

### **FSMU texnologiyasi.**

- (F) - fikringizni bayon eting.
- (S) - sababini ko‘rsating.
- (M) - misol (dalil) keltiring.
- (U) - umumlashtiring.

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, babs munozaralar o‘tkazishda yoki o‘quv-seminar yakunida (tinglovchilarining o‘quv seminari haqidagi fikrlarini bilish maqsadida) yoki o‘quv rejasi asosida biron bo‘lim o‘rganib bo‘lingach qo‘llanilishi mumkin, chunki bu texnologiya tinglovchilarini o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan bir qatorda tinglovchilarning, o‘quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egalaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarini bahslashish madaniyatini o‘rgatadi.

Ushbu texnologiyaning asosiy maqsadi tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog‘ozga o‘z fikrlarini aniq va qisqa ifoda etib, tasdiqlovchi dallillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o‘tkaziladi:

## **1-bosqich.**

-o‘qituvchi tinglovchilar bilan birga babs mavzusini yoki muhokama etilishi kerak bo‘lgan muammoni, yoki o‘rganilgan bo‘limni belgilab oladi;

-o‘qituvchi o‘quv mashg‘ulotida avval har bir tinglovchi yakka tartibda ishlashi, keyin esa kichik guruhlarda ish olib borilishi va nihoyat dars oxirida jamoa bo‘lib ishlanishi haqida tinglovchilarga ma’lumot beradi:

-mashg‘ulot davomida har bir talaba o‘z fikrini erkin holda to‘liq bayon etishi mumkin ekanligi eslatib o‘tiladi.

## **2- bosqich.**

Har bir tinglovchiga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan qog‘ozlar tarqatiladi:

F- fikringizni bayon eting.

S - fikringizni bayon etishga sabab ko‘rsating.

M - ko‘rsatilgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring.

U - fikringizni umumlashtiring.

Har bir tinglovchi yakka tartibda tarqatilgan qozozdagi FSMU ning 4 bosqichini o‘z fikrlarini yozma bayon etgan holda to‘latadi.

## **3 - bosqich.**

-Har bir tinglovchi o‘z qog‘ozlarini to‘latib bo‘lgach, O‘qituvchi ularni kichik guruhlarga bo‘linishlarini iltimos qiladi yoki o‘zi turli guruhlarga bo‘lish usullaridan foydalangan holda tinglovchilarni kichik guruhlarga bo‘lib yuboradi:

-o‘qituvchi har bir guruhda FSMU texnologiyasining 4 bosqich yozilgan katta formatdagi qog‘ozlarni tarqatadi:

-o‘qituvchi kichik guruhlarga har birlari yozgan qog‘ozlardan fikr va dallillarni katta formatdagi umumlashtirgan holda 4 bosqich bo‘yicha yozishlarini taklif etadi.

## **4 - bosqich.**

-Kichik guruhlarda avval har bir tinglovchi o‘zi yozgan har bir bosqichdagi fikrlari bilan guruh a’zolarini tanishtirib o‘tadi. Guruh a’zolarining barcha fikrlari o‘rganilgach, kichik guruh a’zolari ularni umumlashtirishga kirishadi:

-guruh a’zolari FSMUning 4 bosqichini har biri bo‘yicha umumlashtirib, uni himoya qilishga tayyorgarlik ko‘radilar:

-fikrlarni umumlashtirish vaqtida har bir tinglovchi o‘z fikrlarini himoya etishi, isbotlashi mumkin.

## **5- bosqich.**

-Kichik guruhlarda umumlashtirilgan fikrlarini himoya qiladilar: Guruh vakili har bir bosqichni alohida o‘qiydi iloji boricha izoh bermagan holda. Ba’zi bo‘limlarni isbotlash ya’ni guruhning aynan nima uchun shu fikrga kelganini aytib o‘tishi mumkin.

### **6 - bosqich.**

-o‘quituvchi mashg‘ulotga yakun yasaydi, bildirilgan fikrlarga o‘z munosabatini bildiradi;

-quyidagi savollar bilan tinglovchilarga murojat qiladi:

-ushbu texnologiyadan nimalarni bilib oldingiz va nimalarga o‘rgandingiz?

-ushbu texnologiyani o‘quv jarayonida qo‘llanilishi qanday samara berdi?

-ushbu texnologiyani qo‘llanilishi tinglovchilarda qanday hislatlarni tarbiyalaydi, nimalarni shakllantiradi, ularning qanday fazilatlarini rivojlantiradi?

-ushbu texnologiyaning o‘quv jarayonining qaysi bosqichida qo‘llanilgani ma’qul va nima uchun?

-ushbu texnologiyani dars jarayonida qo‘llanilishi tinglovchilarga nima beradi va nimaga o‘rgatadi?

-ushbu texnologiyani yana qanday tartibda yoki qanday shaklda o‘tkazish mumkin?

### **III. NAZARIY MATERIALLAR**



## NAZARIY MATERIALLAR

**1-mavzu: Jahon xalqlarining madaniy hayotida xalq ijodiyotining tutgan o‘rni. Folklor milliy musiqa maktablarining paydo bo‘lishi va rivojlanishi.** (2 soat)

**Reja:**

- 1.1. Jahon xalqlari madaniy hayotida xalq ijodiyoti
- 1.2. O‘zbekistonda xalq ijodiyotini muhofaza qilish borasida so‘nggi yillarda olib borilayotgan ishlar
- 1.3. Xalq ijodiyotining barqaror taraqqiyotni ta’minlashdagi o‘rni: oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash; an’anaviy davolash amaliyotlari; suv resurslarini boshqarishga oid an’anaviy urf-odat va amaliyotlar
- 1.4. O‘zbekistonda folklor milliy musiqa maktablarining paydo bo‘lishi va ularning o‘zaro munosabatlari

**Tayanch iboralar:** *xalq ijodiyoti, tendensiya, madaniy meros, nomoddiy madaniy meros, oziq-ovqat xavfsizligi, an’anaviy davolash amaliyotlari, urf-odat va amaliyotlar, atrof-muhit, iqtisodiy rivojlanish, bilim va ko‘nikmalar, hamjamiyat.*

### **1.1. Jahon xalqlari madaniy hayotida xalq ijodiyoti**

O‘rta Osiyo va Qozog‘istonning yangicha adabiyotlarida og‘zaki-she’riy ijodning mafkuraviy-estetik tamoyillari ustun keldi. Uning boy realistik an’analaridan mahrum bo‘lgan adabiyotlarga ta’siri (masalan, qirg‘iz) o‘sha bosqichda tabiiy edi. Biroq, ba’zida u stilizatsiyalarda ifodalangan va haqiqiy adabiy naqshlarning rivojlanishini bostiradigan kechiktirildi. Bu qirg‘iz yozuvchisi T. Sidikbekovning "Temir", turkman yozuvchisi B. Kerbabayevning "Oq volot mamlakatidan ay-Soltan" va boshqa asarlarida ham yaqqol ko‘rinib turibdi. 40-50-larda mintaqaning adabiyoti folklor namunalariga mexanik rioya qilishni engib, ulardan uzoqlashishga intiladi. Bu nafaqat yutuqlarga, balki xalq madaniyatining hayotbaxsh an’analaridan ma’lum bir ajralishga olib keladi, bu baxtga ko‘ra uzoq davom etmaydi. 50-yillarning 2-yarmidan boshlab O‘rta Osiyo va Qozog‘iston adabiyotlari "milliy folklor bilan sifat jihatidan yangi munosabatlarga" (bor-bugulov M. )(P4, S. 86) kirib keldi. Zamonaviy davrda

nasrni nafaqat muammolarni, balki tasviriy-ifodali imkoniyatlarni ham boyitadigan ongли qabul - syujetlarga, obrazovlarga, og‘zaki-she’riy ijodning badiiy vositalariga murojaat qilish. Shu bilan birga, yozuvchilar bugungi kunlardagi muammolar va ularning fikrlari va uslublarini bosib chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan yangi materiallar asosida "haykal" qiladilar. A. N. Veselovskiy allaqachon ta’kidlaganidek:". qadimgi © bravalar, tasvirlarning aks-sadosi, to‘satdan ular xalq-she’riy talab, vaqt talabi paydo bo‘lganda paydo bo‘ladi. Shunday qilib, xalq afsonalari takrorlanadi, shuning uchun adabiyotda ba’zi mavzularni yangilash tushuntiriladi, boshqalari esa unutiladi "(126, p. 71). Ayniqsa, folklorning 1958 - dan CH.Aytmatovning "Jamila" nashr etilgan vaqt - va bugungi kungacha mintaqaning boshqa nasriy janrlari orasida etakchi mavqega ega bo‘lgan va "vaqt shakli"ga aylangan folklor hikoyasi bilan faol hamkorlik qiladi. "Folklorizmning ikkinchi to‘lqini" deb nomlangan bunday shovqin, hikoyaning falsafiy va romantik xilma-xilligida juda aniq namoyon bo‘ldi. Uning mualliflari ijodkorligi o‘zining badiiy darajasida keng va turli xil materialdir.

Bugungi kunda mintaqaning nasriy yozuvchilari orasida qirg‘iz yozuvchisi va zamonaviy zamonaviy Ittifoqining eng katta vakili "ohangni so‘raydi"- CH.Aytmatov adabiyoti. Uning badiiy faoliyatiga qozoq so‘z ustalari A. Ke-kilbaev, O. Bokeyev, S. Sanbayev va A. Alimjanov, tojik nasriy yozuvchisi F. Muhammadiyev va o‘zbek-tojik adib T. Pulatov, turkman yozuvchisi T. Jumageldiyev va qoraqalpoq romanchisi T. Kaipbergenov bir yo‘l yoki boshqa yo‘l bilan rahbarlik qilmoqda. Ushbu mualliflarning aksariyati adabiyotni folklorga aylantirish yo‘lida haqiqiy muvaffaqiyatga erishadi. Ularning hikoyalari kuchli falsafiy prinsipga, romantik yuksaklikka , lirik hayajonga ega bo‘lib, haqiqiy ishonchlilikni istisno qilmaydi.

Dissertatsiya ishi mavzusi sifatida biz va vtsby-ryamfiloofokd^Dja.ntichesk10 O‘rta Osiyo va Qozog‘iston adabiyotlarining qissasi 60-80gg. Biz CH. Aytmatov, F. Muhammadiyev, T. Po‘latov va A. Kekilboyevning hikoyalariga to‘xtalib o‘tdik, chunki ularda janrning falsafiy-romantik turlarining mafkuraviy-estetik tabiat, shuningdek, ular shubhasiz badiiy fazilatlarga ega ekanliklari aniq ifodalangan. Qozoq yozuvchisi A. Kekilboevning ishi bizning mavzuimizdan tashqariga chiqadi. Shunga

qaramay, qozoq adabiyotining tarixiy taqdiri qozoq xalqiga tegishli Qirg'iziston va qoraqalpoq adabiyotlari bilan juda o'xshash. Shuning uchun biz qozoq hikoyasini Markaziy Osiyo bilan bir xil nuqtai nazaridan ko'rib chiqamiz.

Tahlilni cheklash asosan zamonaviy davr bilan bog'liq bo'lib, quyidagi holatlar bilan izohlanadi. Birinchidan, uning hayotining dastlabki bosqichlarida falsafiy va romantik hikoya folklor bilan hali ham ongsiz ravishda muloqot qiladi va badiiy jihatdan etaricha etuk emas. Ikkinchi, 20-50-larda janrning shakllanishi va rivojlanishi. "Sovet ko'p millatli adabiyoti tarixi", mintaqaning ayrim milliy adabiyotlari tarixi va ocherklarida, shuningdek, o'rta Osiyo va Qozog'iston nasrlarida (Shala-Bayev B.(327), shamuradov B. (328), Erkebayev A. (337) yoki hikoya janrining muayyan jihatlari (Rashidov A. (265). Shu bilan birga, tadqiqot davomida biz Markaziy Osiyo va Qozog'iston adabiyotlari mavjudligining dastlabki davrlarida zarur ekskursiyalar o'tkazamiz.

Mintaqaning zamonaviy hikoyasi sezilarli yutuqlarga erishdi. Shu sababli, uning mafkuraviy va badiiy o'ziga xos xususiyatlarining ayrim xususiyatlari bir qator nashrlarda ko'rib chiqilganligi ajablanarli emas: qozoq-B. Shalabayev (327) dissertatsiyasida; qirg'iz-Q. Asanaliyev (86, 88), K. Bobulov (no), M. Borbugulov (114) kitoblarida; tojik-j.Bako-Zade (95), M. Shukurova (333); Turkman va o'zbeklar dissertatsiyalarida J. M. Shukurova (333). Allakova (80), E. K. Axmedyarova( 94), A. Orazova (241), K. Tagmatova (304) va boshqalar. Shunday bo'lsa-da, dochti hech qanday ish yo'q, qaerda sr^-ektopik-tipologik va tarixiy-genetik jihatlari mazmuni nuqtai nazaridan va poetika nuqtai nazaridan har qanday Markaziy Osiyo adabiyoti hikoya emas tahlil qilindi. va butun mintaqa. Ha, va aniq^. 60-80-larning Nasr rivojlanishida folkloarning roli anadig. zamonaviy adabiyotshunoslikning dolzarb vazifalaridan biri.

Sobiq Ittifoq fanida "adabiyot va folklor" muammosi bo'yicha ko'plab ishlar mavjud. Ular orasida M. M. baxtina (101), P. S. Vyhodtsev (137), V. M. gatsak (139), U. B. Dalgat (155), D. I. Emelyanova (162), Z. S. Kedrina (182), I. P. Lupanova (217), Z. G. Osmanova (244) va boshqalar bor. Shuningdek, "adabiyot va folkloarning o'zaro

hamkorligi ("Naro adabiyoti va folklorining o‘zaro hamkorligi" mavzusidagi konferensiya materiallari

- Markaziy Osiyo va Qozog‘iston dovlari haqida-Dushanbe, 1968.") "(129), "Sovet adabiyoti masalalari. Rus zamonaviy adabiyotida folklor "(133), " Afsona. Folklor. Adabiyot" (229)," SSSR xalqlarining adabiyotlarini rivojlantirishda folkloarning o‘rni "(269)," rus adabiyoti va folklorlari (XIX asrning birinchi yarmi) "(274)," rus adabiyoti va folklori (XIX asrning ikkinchi yarmi) "(275)," rus zamonaviy she’riyati va folklor san’ati "(276), SH-th, up-th va hush-th tom to‘plami " Rossiya folklor. Materiallar va tadqiqotlar" (277, 278, 279) va boshqalar, so‘nggi yigirma yil ichida adabiyot folklorizmini o‘rganishda adabiy uslublar, janrlar, yo’nalishlar og‘zaki folklor san’ati bilan o‘zaro munosabatlarga e’tibor qaratgan ilgari keng tarqalgan monografik jihatni o‘zgartirish tendensiyasi aniq. Shu munosabat bilan simptomatik ravishda U. B. Dalgat monografiyasining nomi " adabiyot va folklor. Nazariy jihatlar". Shu bilan birga, bugungi kunga qadar tasvirlarning janrlari, xalq ijodiyotining badiiy vositalari, tasvirlarning tuzilishi, qurulish, uslubining vazifalari hali ham etarli darajada tahlil qilinmagan. Tezisda biz o‘rta Osiyo va Qozog‘istonning 60-80-yillar hikoyasining o‘ziga xos mazmun va badiiy xususiyatlarini aniqlashga harakat qilamiz.,

Bugungi kunda folklorizmni o‘rganish kabi ko‘rinadi. literdtu / W folklor an’analarini o‘rganish shaklida ham amalga oshirilishi mumkin. Ushbu yondashuv adabiy jarayonning o‘zi tomonidan taklif etiladi, chunki folklor va shartli prinsiplar zamonaviy kengashda ko‘pincha birlashtirilgan. Bu, ayniqsa, Markaziy Osiyo va Qozog‘istonning yangi adabiy asarlari bilan bog‘liq. Olimlar, masalan, G. Lomidze "leninizm va nameniy zamonaviy adabiyoti taqdiri, zionalnyh adabiyoti" (213) nomli kitobida bunday tadqiqotlar ehtimoli va dolzarbligi haqida yozadilar. Shunday emas.kamroq dosihporvse £ sche udepyaetsamyado e’tibor folklor biri sifatida va adabiyotda badiiy Konvensiya manbalari. Ushbu muammoni hal qilishning mumkin bo‘lgan usullaridan birini belgilashdan oldin, adabiyotshunoslik va estetikada badiiy Konvensiya nazariyasining asosiy qoidalariga murojaat qilaylik.

A. V. Lunacharskiy ta'kidlaganidek, inqilobiy san'at " hayoliy giperbole, karikatura, har qanday deformatsiyani qabul qilishi mumkin, agar bu deformatsiyalar hech qanday ta'qib qilinmasa, aslida, futurizm o'zini qo'ygan xayoliy maqsad bilan izohlanmagan. Agar taniqli ijtimoiy xususiyatni samarali aniqlash uchun uni haqiqiy namoyon bo'lishidan butunlay boshqacha tarzda ifodalash kerak bo'lsa, lekin buzilgan va karikatura tasvirini uning tashqi xushbo'yligi va befarqligi ortida yashirgan narsa, albatta, bu usul, albatta, chuqur realdir "(3, p. 300-301). Zamonaviy zamonaviy olimlari shartli hayotni qayta tiklashning ahamiyati va to'liqligi, haqiqatni aniq aks ettirish qobiliyatiga ishora qiladi. M. B. Xrapchenkoning yozishicha, ". realizm hech qachon bir xil emas, tabiiylik. Uning eng yaxshi ko'rinishlarida u kuchli belgilar, yorqin ehtiroslar, shuningdek, giperbole, abartma, fantastika tasvirini o'z ichiga olgan va o'z ichiga oladi" (319, p.67). Biz T. As-karov (90), V. Dmitriev (159, 160), Z. Sidrina (181), B. Suchkov (301), L. G. Yakimenko (340) va sotsialistik realizm yozuvchilar tomonidan badiiy Konvensiya foydalanish, bu usulning imkoniyatlarini kengaytiradi, deb ishonaman boshqa tadqiqotchilar bilan butunlay birdamlik, uni romantik Ilhom beradi, siz falsafa, tarix muhim masalalarni oshirish imkonini beradi.

So'nggi yillarda zamonaviy fanida badiiy an'analarning murakkab muammolarini tushunish uchun juda ko'p ishlar qilindi. Uning keyingi rivojlanishi uchun asos olimlarning ko'pchiligi "Konvensiya" atamasini ikki ma'noda ishlatishidir.

## **1.2. O'zbekistonda xalq ijodiyotini muhofaza qilish borasida so'nggi yillarda olib borilayotgan ishlar**

Jahon xalqlari uchinchi ming yillikka qadam qo'yari ekan, o'z milliy qadriyatlar, urf- odatlari, ma'naviy-madaniy meroslariga tobora qiziqish bilan qaramoqdalar. Zero, inson o'zligini anglashi uchun urf-odatlarini, an'analari va xalq og'zaki ijodini o'rganishi lozim. Xalq og'zaki ijodini o'rganish – xalqning turmush tarzi, buguni va kelajagi, o'y-kechinmalari hamda ruhiyatini o'rganish demakdir, chunki bunda millatning o'zligini anglashi, o'zini namoyon etish tamoyillari, ko'p yillik hayot tarzi va dunyoqarashi aks etgan bo'ladi.

Hozirgi zamon jahon folklorshunosligida har bir xalqning milliy o‘zligini anglatadigan marosim folklori va bu folklor janrlar tarkibining o‘ziga xos jihatlari, tarixiy-genetik asoslari, tarixiy- tadrijiy rivoji, nomoddiy madaniy meros tizimidagi o‘rni, marosim qo‘shiqlarining struktural-semantik xususiyatlari hamda badiiyatini tadqiq etish dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biriga aylandi. Jumladan, fransuz xalq qo‘shiqlarining matniy tahlili, turk marosim folklorining janriy tarkibi, Uzoq Sharq va Sibir xalqlari folklorida marosim lirikasining tutgan o‘rni kabi masalalar keng yoritildi.

Mamlakatimizda bugungi kunda milliy mentalitetimizni belgilaydigan ma’naviy qadriyatlar, jumladan, marosim folklori materiallarini barcha hududlar bo‘yicha to‘plash va tadqiq etish folklorshunoslikning ustuvor tamoyillaridan biri bo‘lib qoldi. Bu yo‘nalish marosim folklori janlarining lokal xususiyatlari va hududiy rang-barangligini aniqlab, o‘ziga xos jihatlarini ochib berish imkonini yaratdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni keltirilgan “milliy ma’naviy o‘zlikka ega bo‘lish, madaniy merosni o‘zlashtirish uchun kurash yalpi ijtimoiy harakat<sup>1</sup>,” sifatidagi ustuvor strategik yo‘nalish ilmiy izlanishlar ko‘lamini yanada kengaytirishga asos bo‘lmoqda. O‘zbek to‘y marosim folklori tarkibida nikoh to‘yi alohida tizim sifatida

muhim o‘rin egallaydi va ularda ijro etiluvchi folklor namunalari rang- barangligi bilan ajralib turadi. Ayni paytda, nikoh marosimlari va folklori har bir hududda ma’lum lokal xususiyatlarga ega. Shu bois, O‘rta Zarafshon vohasi nikoh to‘yi marosim folklori manbalarini to‘plash, mavjud janrlarni aniqlash, ularning marosim tizimidagi vazifasi va badiiy-estetik qimmatini o‘rganish folklor janlarining tarixiy taraqqiyoti va badiiyatiga doir yangi nazariy xulosalar chiqarishga asos bo‘lishi bilan dolzarblik kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 13 maydagি PF- 4797-soni  
“Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini

tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjalalar, 2017 yil 17 fevraldagagi PQ-2789-sonli “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy- tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017 yil 24 maydagi PQ- 2995-sonli “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 7 oktabrdagi VMQ №222-sonli “2010-2020 yillarda Nomoddiy madaniy meros obektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo‘yicha Konvensiyasi “nomoddiy madaniy merosni madaniy turli-tumanlik negizi va barqaror taraqqiyot kafolati” sifatida tan oladi. 2030 yilgacha mo‘ljallangan barqaror rivojlanishning kun tartibi amalga oshirilishi kerak bo‘lgan chora-tadbirlarning rejasi bo‘lib, u 17 ta barqaror taraqqiyot maqsadlari asosida iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik yo‘nalishlardagi masalalarga yechim topishga qaratilgan. Bu maqsadlar o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, rivojlanish yo‘llari haqida ma’lumot beradi va uchta fundamental tamoyilga, ya’ni inson huquqlari, tenglik va barqarorlikka asoslanadi. Nomoddiy madaniy meros nafaqat ushbu uch yo‘nalish doirasida barqaror rivojlanishga samarali ko‘mak berishi, balki barqaror rivojlanishning zaminida yotuvchi tinchlik va xavfsizlikni ta’milanishiga ham yordam berishi mumkin.

Xalq ijodiyotining barqaror rivojlanishga qo‘sghan hissasi tan olinishi va to‘liq ro‘yobga chiqishi uchun uning barqaror rivojlanishda tutgan o‘rnini qanday qilib tushunish lozim?

Barqaror rivojlanishning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik yo‘nalishlari hamda tinchlik va xavfsizlik masalalari bo‘yicha chora-tadbirlari alohida emas, balki bir biribilan chambarchas bog‘liqidir. Barcha yo‘nalishlar o‘rtasida o‘zaro ijobiy aloqa borligini hisobga olgan holda, bu kabi umumiylar maqsadlarga erishish siyosatga nisbatan

yxalit yondashuvni talab qiladi. Shu o‘rinda nomoddiy madaniy meros yuqorida aytib o‘tilgan uch yo‘nalish doirasida barqaror rivojlanishga samarali ko‘mak berishi mumkin. Shunday ekan, biz barchaga xohlayotgan kelajakka erishishda nomoddiy madaniy merosni himoya qilish muhim vazifa hisoblanadi.

Barqaror oziq-ovqat xavfsizligi, sifatli tibbiy xizmat, xavfsiz ichimlik suvi hamda sanitariya ta’minoti, barcha uchun sifatli ta’lim, barchani qamrab oluvchi ijtimoiy muhofaza tizimi va gender tengligi mavjud bo‘lmasa barchani qamrab oluvchi ijtimoiy rivojlanishga erishib bo‘lmaydi. Ushbu maqsadlar negizida keng ishtirokka asoslangan boshqaruv hamda o‘zining qadriyat tizimini tanlash erkinligi bo‘lishi lozim. Jamiyatlar turli vaqtda va turli muhitda yuzaga keladigan ehtiyojlarini qondirish hamda ijtimoiy masalalarga javob topish uchun o‘zlarining nomoddiy madaniy merosini, xususan tabiatga oid bilimlarini, urf-odatlarni va ijtimoiy an’analarini yaratgan va moslashtirib borgan. An’anaviy davolash amaliyotlari, taomni tayyorlash va tanovul qilish bilan bog‘liq urf-odatlar, suv resurslarini boshqarish bilan bog‘liq an’analar, jamoat tadbirlari va bayramlar, bilimlarni kelajak avlodlarga yetkazib berish tizimlari - bularning hammasi barchani qamrab oluvchi ijtimoiy rivojlanishga erishishda muhim rol o‘ynaydi.

### **1.3. Xalq ijodiyotining barqaror taraqqiyotni ta’minalashdagi o‘rni: oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalash; an’anaviy davolash amaliyotlari; suv resurslarini boshqarishga oid an’anaviy urf-odat va amaliyotlar**

Taomni tayyorlash va tanovul qilish bilan bog‘liq urf-odatlar, qishloq ho‘jaligini yuritish, chorvachilik, baliqchilik, ovchilik, oziq-ovqatni to‘plash va saqlashning mahalliy tizimlari oziq-ovqat xavfsizligiga erishishda katta ko‘mak berishi mumkin. Hamjamiyatlar o‘zlarining qishloq hayoti va atrof muhitiga nisbatan mufassal yondashuvchi an’anaviy bilimlarning katta hajmini to‘plagan. Ularning usullari o‘zlarining yerlari va tabiiy muhitlari haqidagi batafsil ma’lumotlarga tayanadi, turli xil qishloq ho‘jaliqi ekinlarini, o‘simlik va hayvonlarini qo‘llashga asoslanadi hamda nam, arktik, subtropik va yog‘ingarchiligi kam bo‘ladigan mintaqalarga moslashtirilgan. Hamjamiyatlar bu mintaqalarga hamda atrof-muhitdagi o‘zgarishlarga mos keladigan

taomni tayyorlash va tanovul qilish bilan bog‘liq turli xil urf-odatlarni, oziq-ovqatni tayyorlash va saqlash tizimlarini yaratishgan. Hozirgi kunda dunyo bo‘ylab ko‘pchilik oilalar yerning hosildorligini oshirishga ko‘mak beradigan, oziq-ovqatni tanlashda turfaxillikni taklif qiladigan, to‘laqonli oziqlanishni ta’minlaydigan hamda sog‘lom turmush tarzini olib borishga yordam beradigan qishloq ho‘jaligi tizimlariga bog‘liq. Bu kabi tizimlarni to‘xtovsiz mustahkamlab borish hamda ularning saqlanib qolinishini ta’minlash dunyodagi ko‘pchilik hamjamiyatlar uchun oziq-ovqat xavfsizligiga erishishda, sifatli ovqatlanishni tashkil qilishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Dunyoning ko‘pchilik hamjamiyatlari davolashga oid turfaxil bilim va amaliyotlarni yaratganlar. Bular samarali va arzon davolash usullarini taklif qiladi va ko‘pincha mahalliy tabiiy resurslarni qo‘llashga asoslanadi. Misol uchun, tabiblar qadim zamondan birinchi tibbiy yordam ko‘rsatadigan juda ham muhim insonlar bo‘lishgan. Ularning dorivor o‘simgani qo‘llash bilan bog‘liq an’anaviy bilim va usullari bemorlarni davolash jarayonida olib borilgan kuzatuvlariiga asoslanadi. Yana bir misol sifatida Tanzaniyaning Tanga tumanidagi tabiblarni, xususan doyalar va ruhshunoslarni ko‘rsatish mumkin. Ular ham jismoniy va psixologik xastaliklarni davolashda o‘zlarining maxsus bilimlarni qo‘llashadi. Umuman olganda, boshqa tibbiy xizmatlardan foydalana olish imkoniyati bo‘lmagan joylarda (shu jumladan, chekka qishloqlarda) bu kabi davolash amaliyotlari arzon hamda barcha uchun qulay bo‘lishi mumkin.

Shuning uchun bu kabi davolash amaliyotlarini tan olish, ularga hurmat bilan qarash, yanada rivojlantirish hamda kelajak avlodlarga yetkazib berish juda muhim hisoblanadi. Bunday choralar ayniqsa an’anaviy davolash amaliyoti hamjamiyat uchun eng qulay tibbiy xizmat turi sifatida qaralgan joylarda amalga oshirilishi lozim. Boshqa tibbiy xizmat turlari mayjud bo‘lgan joylarda esa, ijtimoiy-madaniy hayotda chuqur ildiz otgan bunday an’anaviy bilimlar va amaliyotlar insonlarning tibbiy xizmat turini tanlash imkoniyatlarini ancha kengaytirishi mumkin

Suv resurslarini boshqarishga oid an’anaviy urf-odat va amaliyotlar toza ichimlik suviniadolatli ta’minotiga hamda suv resurslaridan barqaror foydalanishga ko‘mak berishi mumkin, shu jumladan qishloq ho‘jaligi sohasida va turmushning

boshqa jabhalarida. Asrlar davomida mahalliy hamjamiyatlar chuqur ildiz otgan an'analarga amal qilgan holda suv resurslarini barqaror boshqarish hamda barchani toza suv ichimligi bilan ta'minlash bo'yicha ko'nikmalarни shakllantirib keldi. Misol uchun, San Kristobal de las Kasas shaharchasidagi (Chyapas shtati, Meksika) suv resurslarini boshqarish tizimlari Mayya xalqlarining muqaddas qarashlariga va an'analariga asoslanadi. Ularning fikriga ko'ra, insonlar suv aylanishi jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi, chunki insonlar o'zlarining tanasida bo'lган suvi orqali uning to'xtovsiz yangilanishida ko'mak beradi. Shuning uchun suv qandaydir mahsulot sifatida emas, balki umumiy resurs sifatida qaraladi va suv ta'minotini boshqarish butun bir hamjamiyatning vazifasi hisoblanadi.

Ko'pchilik hamjamiyatlar uchun bu kabi tizimlar toza ichimlik suvi olishning yagona imkoniyatidir. Shu sababli ham bunday tizimlarni kelajak avlodlarga yetkazib berishni davom ettirish muhim. Boshqa joylarda ham an'anaviy suv resurslarini boshqarish tizimlari muhim hisoblanadi, chunki ular hamjamiyatlarning tashqi suv ta'minlovchilariga bo'lган bog'liqligini kamaytiradi. Turfaxil suv resurlarini boshqarish tizimlarini hamda ularga oid qadriyatlarini tan olish va hurmat qilish, ularni kengaytirish va to'xtovsiz kelajak avlodga berib borish - bularning barchasi suv masalasiga oid muammolarga barqaror yechim ishlab chiqishda muhimdir.

Hamjamiyatlar o'zlarining tabiiy va ijtimoiy muhitlariga oid bilimlarini, hayotiy ko'nikmalarini va malakalarini tartibga solish va kelajak avlodga yetkazib berish uchun doimo yechim topib kelganlar. Hozirgi kunda rasmiy ta'lim tizimlari mavjud bo'lган joylarda ham bu kabi bilimlar faol ishlatib kelinadi, bilim va ko'nikmalarни berib borishning an'anaviy usullari ko'llaniladi. Bu bilimlar turli sohalarni va masalalarni o'zida mujassam etadi: kosmologiyadan va fizikadan tortib sog'liqni saqlash va tabiiy resurslardan barqaror foydalanishgacha; insonning hayot davridan tortib mojarolarni va nizolarni hal qilish masalalarigacha; o'zlikni anglash va shaxsning jamiyatdagi o'rnidan tortib kollektiv xotira shakllanishi masalasigacha; arxitekturadan materialshunoslik sohasigacha. Shuning uchun barcha uchun sifatli ta'limni joriy qilishda bu kabi boy bilimlar manbasidan yosh avlodlar to'laqonli foydalana olishlari uchun imkoniyat

ta'minlanishi kerak. Shuning uchun ta'limni joriy qilishda nomoddiy madaniy merosning boy manba ekanligini tan olish va uning ta'limga oid imkoniyatlari moslashtirish lozim. Buning uchun esa nomoddiy madaniy merosga oid bilimlarni tegishli sohadagi ta'lim dasturlariga integratsiya qilish hamda nomoddiy madaniy merosni yetkazib berishning an'anaviy usullari va shakllari imkoniyatlarini ta'lim tizimlari doirasida keng qo'llash kerak.

**Xalq ijodiyoti jamiyat ichidagi birdamlikni va integratsiyani mustahkamlashga ko'mak berishi mumkin.** Urf-odatlar, marosimlar va bayramlar hamjamiyatlar va guruhlarning hayotini tashkillashtirishda va tartibga solishda yordam beradi. Ular barchani qamrab olgan holda, insonlarning ijtimoiy turmushini mustahkamlashda asosiy rol o'ynashi mumkin. Masalan, Frevo (Braziliyadagi musiqa, raqs va turli hunarlarni o'z ichiga oladigan badiiy ifoda turi) jamiyatning barcha qatlamlari vakillarini karnaval doirasida birlashtiradi. Frevo Resifi shahri aholisining umumiy merosi hisoblanadi. U shahar aholisida (jinsidan, irqidan, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar) o'ziga hoslik va o'tmish bilan bog'liqlik hissini shakllantiradi, mavjud qadriyatlarni mustahkamlaydi. Turli qatlam vakillari Frevo musiqasi sadolari ostida birgalikda raqsgatushadi. Ko'pchilik urf-odatlar (kichik uchrashuvlardan tortib keng ko'lamli bayram tadbirlarigacha) insonlarda mansublik hissini shakklantirish orqali hamjamiyat ichidagi rishtalarni va birdamlikni mustahkamlashga ko'mak beradi. Nomoddiy madaniy meros gender rollari va gender o'zligini shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Shunday ekan, u gender tengligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Aynan nomoddiy madaniy meros orqali hamjamiyatlar genderga oid o'zlarining qadriyatlarni, normalarini va qarashlarini berib boradi. U tufayli hamjamiyat a'zolarida gender o'zligi shakllanadi. Bundan tashqari, hamjamiyat a'zolarining merosning ayrim ko'rinishlaridagi ishtirokini ham gender normalari belgilab beradi. Misol uchun an'anaviy hunarmandchilikda gender rollariga asoslangan muayyan mehnat taqsimoti kuzatilsa, ijrochilik san'ati turlarida genderga oid qarashlar va rollar ochiq ifodalanishi mumkin. Nomoddiy madaniy meros atrof-muhitda ro'y berayotgan o'zgarishlarga to'xtovsiz moslashib borgani sari, gender rollarida xam o'zgarishlar yuz

beradi. Hamjamiyatlarda gender munosabatlari yuzasidan doimo muzokaralar olib boriladi. Buning natijasida nomoddiy madaniy meros bilan shug‘ullanish orqali gender kamsitilishiga barham berish uchun hamda gender tengligiga erishish uchun keng imkoniyatlar yaratiladi.

Nomoddiy madaniy meros gender rollari haqida yagona qarashga ega bo‘lmagan ko‘pmillatli hamjamiyatlarda o‘zaro ishonchni va bag‘rikenglikni mustahkamlashi mumkin. Bundan tashqari u gender tengligiga erishishning eng maqbul yo‘li yuzasidan olib boriluvchi muloqotlar uchun o‘ziga xos zamin yaratishi mumkin.

Atrof-muhitning barqarorligi turg‘un iqlimni, tabiiy resurslarning barqaror boshqaruvini hamda bioturfaxillikni talab qiladi. Bular o‘z navbatida iqlim o‘zgarishi, xavfli tabiiy hodisalar, kosmik muhit va tabiiy resurslarga oid cheklovlar haqidachuqur ilmiy tushuncha hosil qilishga, bilimlar almashinuvini tashkil qilishga bog‘liq. Iqlim o‘zgarishi natijasida hamda tabiiy ofatlar sababli yuzaga keladigan salbiy oqibatlarning ko‘lamini cheklashda yordamga muhtoj aholi qatlamlarini barqarorligini mustahkamlash o‘ta muhim hisoblanadi. Avloddan-avlodga to‘planib, boyitib borilgan hamda nomoddiy madaniy merosning ajralmas qismi bo‘lgan an’anaviy bilimlar, qadriyatlar va urf-odatlar qadim zamondan jamiyatlarning atrof-muhiti bilan o‘zaro aloqasida hamroh bo‘lib kelgan. Hozirgi kunda nomoddiy madaniy merosning atrof-muhit barqarorligiga qo‘shayotgan hissasi ko‘pchilik sohalarda tan olinadi. Bularga bioturfaxillikni saqlash, tabiiy resurslarni barqaror boshqarish va tabiiy ofatlarga tayyorgarlik va ularning oqibatlarini bartaraf qilish sohalari kiradi. Tirik meros sifatida atrof-muhitga oid bilimlar, qadriyatlar va an’analar shakllanishi va tabiiy resurslardan barqarorroq foydalanishga moslashtirilishi mumkin. Buning natijasida esa hamjamiyatlarda iqlimning o‘zgarishi bilan bog‘liq muammolarga (yoki tabiiy ofatlarga) yaxshiroq bardosh bera olish imkoniyati tug‘iladi.

### **Xalq ijodiyoti bioturfaxillikni himoyaqilishgayordamberishimumkin.**

Mahalliy hamjamiyatlar bioturfaxillikni saqlashda muhim o‘rin egalaydilar. Masalan Keniyadagi Kikuyyu ayollar qishloq hujaligi ekinlarini o‘sirishda va o‘simliklar urug‘larini saqlashda muhim o‘rin tutadilar. An’anaga ko‘ra, ayollar

loviyaning bir necha navini bir ekin maydonida o'stiradilar va kasallik tarqalishi yoki iqlim o'zgarishi ehtimolini hisobga olib urug'larning katta zahiralarini saqlab qo'yadilar. Bugungi kunda ushbu zahiralar mahalliy aholining urug' materiallari to'g'risida qimmatli bilimlarini o'z ichiga olgan juda qadrli xazina hisoblanadi. Bu esa kishlok xujaligi resurslari kamayib ketayotgan bir paytda juda katta ahamiyatga ega. Bundan ko'rinish turibdiki, boshqa mahalliy bilim sohiblari kabi fermerlar, chorvadorlar, baliqchilar va xalq tabiblari bioturfaxillikni saqlovchilari bo'lishi mumkin.

**Xalq ijodiyoti atrof-muhitning barqarorligini saqlab qolishda yordamberishi mumkin.**

Dunyo miqyosida inson faoliyati natijasida tabiiy resurslarning borgan sari nobarqaror iste'moli sodir bo'layotgan bir mahalda, ko'pgina mahalliy hamjamiyatlar tabiat bilan chambarchas bog'liq bo'lgan va atrof-muhitga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lishga yordam beradigan turmush tarzini yo'lga qo'ydilar va nomoddiy madaniy meros an'analarini yaratdilar. Masalan, Samoadagi yupqa to'qilgan gilamchalar madaniy tadbirlar o'tkazayotganda o'ziga xos valyuta sifatida qo'llaniladi; yoki marosimlar paytida ishlatiladi. Vaqt o'tishi bilan atrof-muhit bilan bog'liq bilimlar (shu jumladan to'qimachilikda asosiy hom-ashyo sifatida qo'llanilib keladigan pandana daraxtining turli navlarini o'stirishga oid bilimlar) to'qimachilikning ajralmas qismi sifatida ko'rildigan bo'ldi. Bu kabi bilimlar Samoa aholisiga atrof-muhitni saqlab qolishda yordam beradi, chunki Samoaliklar o'zlarining farovonligi tabiat va atrof-muhitga juda ham bog'liq ekanligini tushunadilar. Shunisi e'tiborga loyiqliki, o'simliklardan to'qib tayyorlangan bunday mahsulotlar tabiiy yo'l bilan parchalanadi va yo'q bo'lib ketadi. Shuningdek bunday mahsulotlarning hayot davomiyligi sezilarli darajada qisqaroq bo'lib, u ekish, hosilni terib olish, mahsulotni yaratish, undan foydalanish va uni osonlikcha yo'q qilishdan iborat. Bu esa butun dunyo bo'y lab ommaviy ko'llaniladigan va yo'q qilinishi qiyin bo'lgan plastmassa va boshqa ekologik jihatdan zararli hisoblangan mahsulotlardan ancha farq qiladi.

**Tabiat bilan bog'liq mahalliy bilim va urf-odatlar atrof-muhit barqarorligini ta'minlash sohasida olib boriladigan tadqiqotlarga ko'makberishimumkin.**

Masalan, baliqchilik bilan bog‘liq an’ anaviy bilim va ko‘nikmalar ni saqlab qolgan baliqchilar dengizdag i bioturfaxillikka oid muammolarni hal qilishiga yordam beradigan boy ma’lumotga ega. Ular baliqlarning tabiat i, fe’l-atvori, migratsiyasi, yashash joyi hamda turli fasllarga moslashgan va baliqchilikda qo‘llaniladigan uslublar to‘g‘risida batafsil bilimlarga ega. Amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan bu kabi bilimlar dengizdag i bioturfaxillikni tiklash va saqlab qolish borasida olib boriladigan ilmiy izlanishlarga ko‘mak berishi mumkin. Umuman olganda, hamjamiyatlar va tadqiqotchilar o‘rtasidagi xalqaro hamkorlik, shuningdek, ular o‘rtasidagi o‘zaro ilg‘or tajribalar almashinuvi turli sohalarda atrof-muhit barqarorligiga erishishda yordam berishi mumkin, shu jumladan, o‘rmonlarni saqlash va muhofaza qilish sohasida yoki qishloq xo‘jaligida bioturfaxillikni saqlash va tabiat resurslarini boshqarish sohalarida.

Tinchlik va xavfsizlik, hususan mojarolardan, kamsitishdan va zo‘ravonlikning barcha turlaridan holi bo‘lish barqaror rivojlanishning dastlabki shartlari hisoblanadi. Ushbu talablarni bajarish inson huquqlariga hurmat bilan qarashni, samarali adliya tizimlarini, ochiq siyosiy jarayonni, mojarolarni oldini olish va hal qilish bo‘yicha tegishli tizimlarning mavjud bo‘lishini talab qiladi. Shuningdek, tinchlik va xavfsizlik maxalliy axolining tabiiy resurslardanadolatli foydalanishini ta’minalash hamda unga xech kanday cheklov yoki kamsitishsiz yerdan foydalanish va egalik kilish huquqini berish bilan bog‘liq.

Nomoddiy madaniy merosning turli ko‘rinishlari va shakllari o‘zida tinchlik g‘oyalarini mujassam etadi hamda muloqot va hamjihatilikka ko‘maklashadi. Merosni muhofaza qilish bo‘yicha chora-tadbirlarning o‘zi ham tinchlik o‘rnatishga hissa qo‘shishi mumkin. Shunday ekan, nomoddiy madaniy meros va merosni muhofaza qilish sohasidagi bunday chora-tadbirlar davlatlarga, hamjamiyatlarga va barcha rivojlanish jarayoni ishtirokchilariga madaniyatlarining o‘ziga xos xususiyatlarini e’tiborga olgan holda o‘z yo‘llaridan borish imkonini beradi va kengqamrovli ishtirokka erishishga, tinch-totuv yashashga, nizolarni oldini olishga va hal qilishga yohud barqaror xavfsizlikni ta’minalashga va tinchlikni o‘rnatishga imkoniyat yaratadi.

## **Xalq ijodiyotiga oid ko‘pchilik urf-odatlar negizida tinchlikni mustaxkamlash g‘oyalari yotadi.**

1236 yilda Sundiata Keyt tomonidan ta’sis etilgan Manden xartiyasi (Mali imperiyasining konstitusiyasi) bunga yaqqol misol bo‘la oladi. U inson huquqlariga oid dunyodagi birinchi xartiyalardan biri bo‘lib, etnik va madaniy turfaxillik sharoitida hamjixatlik va tinchlik, inson hayotining daxlsizligi, qullikka olish maqsadida bosqinchiliklarga chek qo‘yish, o‘z fikrini erkin ifoda etish hamda erkin tadbirkorlik faoliyatini yuritish kabi kadriyatlarni o‘zida mujassam etadi. Xartiyada aytib o‘tilgan so‘zlar, shuningdek u bilan bog‘lik (og‘zaki tarzda avloddan-avlodga berib borilayotgan) marosimlar Malinke xalqi tomonidan hozirgi kungacha qadrlanib kelmoqda. Bu xartiyani ta’sis etgan tarixiy uchrashuvga bag‘ishlangan xotira marosimlari har yili Malidagi Kangaba qishlog‘ida nishonlanadi. Bu marosimlar mahalliy va milliy hukumat tomonidan, jumladan qabila boshqaruv organlari tomonidan tashkillashtiriladi. Xartiya xuquq manbai shuningdek muxabbat, tinchlik va birodarlik rishtalarini tarannum etuvchi o‘ziga hos noma sifatida ham ko‘riladi. Umuman olganda, butun dunyo bo‘ylab nomoddiy madaniy merosning turli xil ko‘rinishlari tinchlik qadriyatlarini mustahkamlash va muhofaza qilishga hizmat qiladi.

## **Xalq ijodiyoti nizolarni oldini olishga yoki hal qilishga yordam berishi mumkin.**

Muloqot olib borish, nizolarni hal qilish va murosaga kelishning mahalliy an’analari dunyo jamiyatlarida muhim o‘rin egallaydi. Aniq ijtimoiy va ekologik masalalarga javob berish, umumiylar makondan foydalanish, tabiiy resurslarni boshqarilishini tartibga solish hamda insonlar tinch-totuv yashashlari uchun yaratilgan va asrlar davomida shakllangan bunday tizimlar o‘zlarining hususiyatiga qo‘ra norasmiy yoki puxta o‘ylab chiqilgan bo‘lishi mumkin. Masalan, Ispaniyaning yog‘ingarchiligi kam bo‘ladigan Mursiya va Valensiya mintaqalarida, fermerlar o‘rtasida suv resurslarini taqsimlanishi va irrigatsiya tizimlarini boshqarilishiga oid masalalar yuzasida kelishmovchiliklari bo‘lsa, ular kommunal sudlarga murojaat kiladilar. Mursiya oqsoqollari kengashining hamda Valensiya suv ishlari bo‘yicha sudining a’zolari har

payshanba kuni o‘z hukmlarini e’lon qilish uchun yig‘iladilar. Bu e’lon qilingan hukmlar adolatli va oqilona deb tan olinadi va boshqa fuqarolik sudi dagi hukmlar kabi yuridik kuchga ega. Sud a’zolari fermerlardan iborat bulib, ular demokratik tarzda yoki qur’a tashlash orqali tayinlanadi. Ular ikki taraflama da’volarni ko‘rib chiqishda o‘zlarining dehqonchilik, irrigatsiya va mahalliy an’analar to‘g‘risidagi bilimlariga tayanadi. Umuman olganda bu kabi nomoddiy madaniy meros an’analarining saqlanib qolishi hamjamiyatda tinchlik va havfsizlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular barcha taraflarni jalb qilgan holda nizolarni oldini olishda va hal kilishda yordam beradi.

#### **1.4. O‘zbekistonda folklor milliy musiqa maktablarining paydo bo‘lishi va ularning o‘zaro munosabatlari**

An’anaviy folklor janrlari va marosimiy qadriyatlar tizimining lokal xususiyatlarini o‘rganish borasida muayyan hududlar, xususan, Qashqadaryo, Xorazm, Buxoro, Jizzax, Surxondaryo va Farg‘ona vodiysi xalq og‘zaki ijodi materiallari asosida amalga oshirilgan izlanishlar, ayniqsa, samarali bo‘lgan. O‘zbek nikoh to‘yi marosimi folklori janrlarining hududiy-lokal jihatlarini birinchilardan bo‘lib o‘rganishga kirishgan prof. O.Safarov Buxoro va Navoiy viloyatlarining ayrim tumanlaridan yozib olingan materiallar asosida “kelin o‘tirsin”, “kuyov o‘tirsin”, “kelin eltish” va “kuyov eltish” udumlari folklori haqidagi ilk tadqiqotlarini chop ettirgan. S.Davlatov Qashqadaryo vohasi aholisining nikoh to‘yi marosimi va ular bilan bog‘liq udumlarni hududiy o‘ziga xos jihatlarini yoritgan. L.Xudoyqulova Surxon vohasi marosim qo‘shiqlarining tarixiy asoslari qadimgi baqtriyaliklar va kushonlar madaniyatiga borib taqalishini aniqlagan. M.Jo‘rayev “Kelin tushdi” marosimi” risolasida Andijon viloyatidan yozib olingan materiallari asosida kelinni kuyovning uyiga olib kelish jarayoni bilan bog‘liq udumlar va unda aytiladigan qo‘shiqlarni tahlil qilgan.

O.Ismonova Farg‘ona vodiysi oilaviy-maishiy marosimlar folklorida “kelin salom” qo‘shiqlarning genezisi, hududiy o‘ziga xosligi va poetikasini o‘rgangan. Xorazm to‘y qo‘shiqlarini tadqiq etgan N.R.Quronboyeva voha nikoh to‘yi

marosimi folklorining umumo‘zbek an’analari bilan tarixiy-genetik jihatdan mushtarak jihatlari hamda o‘ziga xos lokal xususiyatlarini aniqlagan.

Shuningdek, U.Jumanazarov, G.Tosheva, F.Hayitova va X.Xolovalarning maqolalarida o‘zbek nikoh to‘yi folklorining olqish, yor-yor kabi janrlariga doir materiallar tahlilga tortilgan. Tadqiqotlar natijasida o‘zbek nikoh to‘yi marosimi tarkibidagi urf-odat va udumlar hamda ularning verbal komponentlari o‘ziga xos hududiy-lokal xususiyatlarga egaligi aniqlangan.

An’anaga ko‘ra, nikoh to‘yi marosimi, albatta, sovchilikdan boshlangan. Sovchilik – o‘zbek xalqining azaldan e’zozlanib, muqaddas sanalib kelayotgan odatlaridan biri. “Sovchi” so‘zining kelib chiqish tarixi qadimgi turkiylar tilida “so‘z”, “xabar”, “hikoya” ma’nolarida qo‘llanilgan “sav” leksemasi bilan aloqadordir. Qozoq tilshunosi R.Sizdiqovaning fikricha, “savchi”/“javchi” so‘zining asosida turadigan “sav” elementi turkiy tillarda “so‘z” ma’nosini bildiruvchi “səz/sau” o‘zagiga bog‘lanadi.

Samarqand viloyati tumanlarida sovchilarining ilk bor kelishi “eshik ochar” deyilsa, qayta-qayta qatnashi “kovush yirtar” deb yuritilgan. Paxtachi tumanidagi Suluvqo‘rg‘on qishlog‘ida sovchilarining ilk bor tashrif buyurishini “go‘sala (ya’ni urg‘ochi buzoq) izlab kelibdilar”, “yitik (ya’ni yo‘qotilgan narsa, kishi) axtarib kelibdilar” deydilar.

Odatda, sovchi bo‘lib kelgan kishilar qizning ota-onasiga o‘z maqsadlarini bayon etish chog‘ida: “Sizdan bitta ro ‘mol olay deb keldik”, “Qizingizning boshini bog‘lay deb keldik”, “Eshigingizni supurgani qulchilikka keldik” kabi iboralarni ishlatishadi. An’anaga ko‘ra, sovchilar o‘z niyatlarini ochiq bayon qilishga o‘tishdan avval tashrifdan ko‘zlangan maqsadni evfemik nutq vositasida ifoda qilishlari an’anaviy holat hisoblanadi.

Sovchilar qiz tomonni qudalashishga rozi qilib kelishgandan keyin Jizzax viloyatining Baxmal tumanida “**qatlama to‘yi**” o‘tkazilgan. O‘sha kuni kuyovning jo‘ralari ham yig‘ilib, o‘yin-kulgi qilishgan.

Yigitlarning chechan va sho‘xrog‘i qatlama bilan sarpolarni olib ketishga chog‘lanayotgan yangalarga hazil qilib, quyidagicha qo‘shiq aytishgan:

Potma patir, jupqa qotir,  
Jupqang pishsa bizni chaqir!  
Chechamda bor jamalak,  
Ko‘kka chiqdi kamalak.

Samarqand viloyatining Bulung‘ur tumanida nikoh to‘yining birinchi qismi bilan aloqador o‘ziga xos udumlardan biri – “bo‘ta soldi” o‘yini mavjud bo‘lib, bu o‘yin haqidagi dastlabki ma’lumot 1962 yilda folklorshunos olima Z.Husainova tarafidan yozib olingan. An’anaga ko‘ra, katta to‘ydan bir necha kun ilgari qizning yaqin dugonalari bilan kuyov yigitning jo‘ralari kelinning birorta qarindoshi yoki qo‘shnisinikida to‘planishib, “qiz o‘yin” yoki “qiz yig‘in” marosimini o‘tkazishganida ana shu o‘yin o‘ynalgan. Qiz va yigitlar davra qurib o‘tirishgan. Bir qiz:

Bo‘ta solay, kimga solay,  
Chochi uzun qizga solay,  
Osmondagи oyga solay,  
Chochi uzun qizga solay,

deb qo‘shiq aytib, qo‘lidagi bo‘ta, ya’ni zangori ko‘zli uzuk yoki toshchani ana shu qizlardan birining kafti orasiga tashlab ketgan. O‘tirgan yigitlar bo‘ta qaysi qizda ekanligini topishlari kerak bo‘lgan. Topgan yigitga ro‘molcha sovg‘a qilingan, agar topolmasa, darra, ya’ni tugilgan ro‘mol bilan urishgan. O‘yin ana shu tartibda davom etgan.

Folklor to‘plovchi R.Sarimsoqov Jizzax tumanidan bu o‘yin qo‘shig‘ining quyidagi namunasini yozib olgan:

O‘sma ekdim, o‘t bosdi, ho yalli-yalli-yalli,  
Bargi bog‘imni bosdi, ho yalli-yalli-yalli, Qarg‘a

shoyi chiqibdi, ho yalli-yalli-yalli, Yorginamni  
g‘am bosdi, ho yalli-yalli-yalli. Bo‘ta solay,  
kimga solay,  
Sochi uzun qizga solay.

Hoy qizgina, bilmadingmi,  
Ro‘molchamni ko‘rmadingmi?

Ko‘rinadiki, “bo‘ta soldi” udumi qo‘shig‘ining bu namunasi har biri to‘rt misralik ikki banddan iborat bo‘lib, dastlabki to‘rt misra yetti hijoli she’riy tuzilishga ega. Bu matn har bir misradan keyin takrorlanuvchi “ho yalli-yalli-yalli” qaytarig‘i bilan qo‘shib ijro etilgan. Keyingi band esa sakkiz hijoli she’r shaklida bo‘lib, poetik takrorsiz aytilgan. Bandning oxiridagi “Ro‘molchamni ko‘rmadingmi?” misrasi “bo‘ta”ni axtarayotgan yigitning o‘yinda g‘olib bo‘lib, sovg‘a sifatida qizlardan ro‘molcha olish istagini ifoda etadi.

Xalq orasida “bo‘ta soldi” yoki “po‘ta soldi” nomi bilan tanilgan ushbu udum nikoh to‘yi marosimi tarkibidagi nisbatan qadimiy udumlardan biri bo‘lib, po‘ta solish asnosida aytiladigan baytlar 1873 yilda Sharqiy Turkistonning Ili tumanida yashovchi uyg‘urlardan N.N.Pantusov yozib olgan. “Bo‘ta soldi” udumi qo‘shiqlari qiz va yigitlar tomonidan aytishuv sifatida ijro etilishi, o‘ziga xos vazn va qofiya tuzilishiga ko‘ra ajralib turishi, ishq-muhabbat, sof sevgi, vafo va sadoqat, oila muqaddasligi, inson qadr-qimmatining ulug‘ligi, do‘slik, o‘zaro ahillik va mehr-oqibatni tarannum etishi bilan xarakterlanadi. “Bo‘ta soldi” udumi va uning poetik folklori tili asosan qorluq-chigil dialektiga mansub bo‘lgan uyg‘ur va o‘zbeklar og‘zaki badiiy ijodida mavjudligi bu janrga mansub marosim qo‘shiqlari o‘troq dehqonchilik va shahar madaniyati rivojlangan hududlarda shakllanganligini ko‘rsatadi.

## *Nazorat savollari*

1. BMTning “Barqaror taraqqiyot” dasturining prinsiplari nechta?
2. “Barqaror taraqqiyot” dasturining birinchi prinsipi qaysi masalaga bag‘ishlangan?
3. BMTning mingyillik maqsadlari va “Barqaror taraqqiyot” dasturidagi eng so‘nggi masala qaysi muammoga bag‘ishlangan?
4. O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosi “Barqaror taraqqiyot” maqsadlaridan qay biriga xizmat qilishi mumkin (bitta meros namunasida aytib bering)?
5. Nomoddiy madaniy merosning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashdagi roli nimada ko‘rinadi?
6. An’anaviy davolash amaliyotlari qanday qilib barqaror taraqqiyot uchun xizmat qilishi mumkin?
7. O‘zbek nomoddiy madaniy merosida suv resurslarini boshqarishga oid an’anaviy urf-odat va amaliyotlardan misollar keltira olasizmi?
8. Atrof-muhitning barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladigan nomoddiy madaniy merosimiz mavjudmi?

### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. SH.Turdimov. Epos va etnos. Toshkent, O‘zbekiston nashriyoti 2012 y.
2. T.Mirzayev. Hodi Zarif suhbatlari. Toshkent, 2013 y.
3. T.Mirzayev. Xalq baxshilarining epik repertuari. Toshkent, Fan nashriyoti, 1979 y.
4. M.Murodova. Folklor va etnografiY. Toshkent, 2008 y.
5. J.Eshonqulov. Folklor: obraz va talqin. Qarshi, Nasaf nashriyoti, 1999 y.
6. M.Jo‘rayev, J.Eshonqulov. Folklorshunoslikka kirish. Toshkent, 2017 y.

### **Internet resurslar:**

<https://www.unesco-ichcap.org/publications/>  
<https://www.ich.uz>

## **2-mavzu: Xalq ijodiyoti targ‘ibotida folklor qo‘shiqlarining o‘rni.**

**(2 soat)**

**Reja:**

- 2.1. Nikoh to‘yi marosimida xalq qo‘shiqlari
- 2.2. Folklor jamoalari repertuarida xalq folklor qo‘shiqlari
- 2.3. Folklor qo‘shiqlarida an’ana
- 2.4. Folklor qo‘shiqlarida variantlilik
- 2.5. Folklor qo‘shiqlarining janrlari
- 2.6. Folklor qo‘shiqlarining lokal janrlari

**Tayanch iboralar:** *konvensiya, madaniy meros, nomoddiy madaniy meros, Operativ yo‘riqnomalar, Bosh assambleya, Kotibiyat, Reprezentativ ro‘yxat, ratifikatsiya, tarixiy-madaniy ekspertiza, ansambllar, yodgorliklar, nomoddiy madaniy meros sohalari, bilim va ko‘nikmalar, hamjamiyat, merosni o‘zida saqlovchilar, nodavlat-nohukumat tashkilotlari.*

### **2.1. Nikoh to‘yi marosimida xalq qo‘shiqlari**

O‘zbek nikoh to‘yi marosimi folklori tarkibidagi janrlar uch turkumga bo‘linadi: a) to‘yga tayyorgarlik ko‘rish jarayoni udumlari folklori; b) nikoh to‘yida ijro etiladigan qo‘shiq va aytimlar; v) nikoh to‘yidan keyin o‘tkaziladigan marosimlar folklori. Shu jihatdan olganda, O‘rta Zarafshon vohasi o‘zbek nikoh to‘yi marosimining har bir bosqichiga mansub folklor janrlari rang-barangligi va o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi.

O‘rta Zarafshon vohasining Jizzax, Samarqand va Navoiy viloyatlari hududida yashovchi aholi tomonidan o‘tkazib kelingan nikoh to‘yi marosimining ikkinchi bosqichiga mansub udumlar folklori tizimida “baytbarak aytish” an’anasi alohida o‘rin tutgan.

Ma’lumki, “bayt-g‘azal” to‘y marosimining qiz o‘yin kechasi, qayliq o‘yinida, unashtirilgan yigitlar qizlarga bayram va sayillarda miyancha (ya’ni qand-qurs, quruq mevalar, non va choydan iborat ziyofat) bergenlarida, hasharlardagi ziyofatlarda bir-biriga choy uzatayotganda cholg‘usiz aytildigan qo‘shiqlardir”. Qiz va yigitlarning o‘zaro aytishuvi tarzida ijro etiladigan bu janrga oid qo‘shiqlar

hozirgi paytda turkiy xalqlardan faqat ikkitasida – o‘zbek va uyg‘ur folklorida saqlanib qolgan. O.Boqiyevning yozishicha, “Uyg‘ur baytlari yigit qizga yoki qiz yigitga gul tutganda, choy uzatganda, olma yoki boshqa meva berganda, qisqasi, bir narsani

chin ko‘ngildan hadya etganda (yosh-qari bo‘lishidan qat’i nazar), orzu-istaklarning bayoni o‘rnida aytildi”.

Zarafshon vohasi hududidagi Jizzax, Samarqand va Navoiy viloyatlarida olib borilgan izlanishlar davomida ba’zi joylarda nikoh to‘ylarida bayt aytish udumi saqlanib qolganligi aniqlandi. Kelin tushirish to‘yidan bir kun avval kelinning dugonalari bilan kuyovning jo‘ralari, shuningdek, har ikki tarafning eng yaqin qarindosh-urug‘lari va qo‘ni-qo‘shni ayollar ishtirokida ikki tomonda turib tarafma-taraf aytishuvi odati “baytbarak aytish” deyiladi.

Bu marosimda qiz va yigitlarning zukkoligi, topqirligi va hozirjavobligi o‘z ifodasini topgan:

Yigit:

Qiya-qiya, qiya jo‘l-a, Qiyalab o‘tdim

bilmading. Chaqirgani uyalib-o,

Ishqirib o‘tdim bilmading.

---

<sup>1</sup> Pantusov N.N. Materiali k izucheniyu narechii taranchey Iliyskogo okruga. – Kazan, 1907. – S. 27–28.

<sup>2</sup> Alaviya M. O‘zbek xalq marosim qo‘shiqlari. – Toshkent: Fan, 1974. – B. 203–204.

Ushbu baytbarakda “qiya” so‘zini uch marta qaytarish, ya’ni poetik takror usulini mahorat bilan qo‘llagan ijrochi ikkinchi misrani ham ushbu o‘zak asosida yasalgan fe’l shakli (“qiyalab”) bilan boshlashi, birinchidan, matnga o‘ziga xos ohangdorlik, jozibadorlik baxsh etgan bo‘lsa, ikkinchidan, turkiy xalqlar she’riyatining qadimiy badiiy vositalaridan biri – alliteratsiya san’atini yuzaga keltirgan. Bu badiiy san’at mazkur baytbarakning keyingi bandlarida ham g‘oyat faol qo‘llanilgan (“o‘tiruvdim” – “o‘y”; “bo‘z” – “bo‘y”; “qurib” – “quv” kabi).

Jizzax viloyatidan yozib olingan bayt (“baytbarak”) janriga mansub poetik matnlar o‘zining mazmunan voqebandlik kasb etishi, xalqimizning qadimiy urf-odatlari, inonch-e’tiqodlari va rasm-rusumlarini o‘zida ifodalashi, badiiy jihatdan mukammalligi, alliteratsiya, poetik takror, ramz, parallelizm, epitet, o‘xshatish singari badiiy vositalar ko‘p qo‘llanilishi bilan o‘ziga xoslik kasb etadi.

O‘zbek nikoh to‘yi marosimining bevosita nikoh to‘yining o‘tishi jarayoni bilan aloqador rasm-rusumlar va udumlar folklorida “yor-yor”, “o‘lan” singari janrlar qatorida “kuyov o‘tirsin”, “kelin o‘tirsin” marosimlarining aytimlari ham muhim o‘rin tutadi.

Samarqand viloyatining Paxtachi tumanidagi Suluvqo‘rg‘on qishlog‘ida yashovchi 69 yashar Fotima opa Qurdosh qizining aytishicha, kuyovni kelinning

uyiga olib borayotgan paytda yigitlarning oldida  
boradigan “kuyovboshlatar”, ya’ni kuyovning eng yaqin jo‘rasi  
quyidagi qo‘shiqni aytgan:

Mong-mong bosgan mong bosgan, Bo‘rboyini  
teng bosgan.

Nor tuyaday angishlab, G‘o‘ch g‘o‘nanday irg‘ishlab,  
Kuyov keldi ko‘ringiz!

Hamyonidan tilla sochib,  
O‘z baxtini o‘zi ochib,  
  
Larzon minan qadam tashlab,  
Jo‘ralari yo‘l boshlab,  
  
Kuyov keldi ko‘ringiz!

Mazkur marosim qo‘shig‘ida kuyov ta’rifiga asosiy e’tibor qaratilgan bo‘lib, uni “nor tuya” yoki “g‘o‘ch g‘o‘nan”ga o‘xshatish orqali kuyovning ayni kuch- quvvatga to‘lganligi, jismonan baquvvatligi, oila qurishga tayyor ekanligi bayon etilsa, “hamyondan tilla sochmoq” birikmasi orqali uning boybadavlatligi, serhimmat va qo‘li ochiq ekanligi anglashilmoqda. O‘zbek xalq she’riyatiga xos an’anaviy poetik tuzilishga ega bo‘lgan ushbu qo‘shiq yetti va sakkiz hijoli besh misradan iborat bandlar tuzilishi asosiga qurilgan. Qo‘shiqning qofiyalanish tartibi “a-a-b-b-v“ tarzidadir.

Samarqand viloyatining Urgut tumanida kuyov va uning jo‘ralari kelinni olib ketish uchun qizning uyiga kelishganida kuyovni kutib olish chog‘ida o‘ziga xos aytim-qo‘shiqlar aytildi. Kuyov va uning jo‘ralari darvozadan kirishgach, kelin tomon ayollardan biri “Xush keldingiz” qo‘shig‘ini aytadi:

Darvozani boshiga,  
Kaklik qo‘nib  
yo‘rg‘alsin, O‘rta bo‘yli,  
qalam qoshli,  
  
Kuyov bola, xush keldingiz.  
Orqasidan birga kelgan,  
Jo‘ralari, xush keldingiz<sup>2</sup>.

Bu qo‘shiqda qo‘llanilgan “kaklik” poetik timsoli kuyov obrazining badiiy aniqlovchilari bo‘lib, “darvozaning boshiga kaklik qo‘nishi” kuyovning qiz xonadoniga kelganligiga ishoradir.

“Kelin tushdi” marosimi kuni qizning uyiga kelgan kuyov va uning jo‘ralarini yangalar alohida bezatilgan uygaga olib kirib ziyofat qilganlar, dastlab ularning oldiga “to‘qqiz tovoq” qo‘yilgan. “To‘qqiz tovoq” qo‘yishdan avval hamma yigitlar o‘tirsa-da, kuyov o‘tirmasdan boshini egib hurmat bajo keltirgan holda tikka turaveradi. Shunda kuyovjo‘ralar kelinning onasini chaqiradilar. Qaynonasi kirib keladi va kuyoviga o‘zining eng yaxshi ko‘rgan narsalarini, odatda, qizil tusli sigiri bilan qo‘y-qo‘zilarini hadya etgan. O‘sha paytda kayvoni yoki kelin taraf ayollardan biri:

Kuyovginam aylansin-o,  
Zar-baxmalga belansin-  
o,  
Qizil sigir, bir qo‘y-qo‘zi,  
Shu kuyovimdan aylansin-o.  
Langar otam qo‘llasin-o,  
Xizr ota yo‘llasin-o.  
  
Qo‘y haydayin qo‘toniga,  
Ot boylayin arqoniga,  
Aynalayin oyginamdan,  
Suv olayin soyginamdan,  
Go‘ja tuyib  
bug‘doyimdan,  
  
Baxt tilayin xudoyimdan, – deb qo‘shiq aytadi.

Ushbu marosim qo‘shig‘ida kuyovga baxtli hayot, farovon turmush va qutbaraka tilash g‘oyasi yetakchilik qiladi. Ezgu niyat bilan o‘zining qaylig‘ini olib ketish uchun qaynotasining xonadoniga tashrif buyurgan kuyov hamisha “zar-baxmalga belanib” yurishi, ya’ni yangi qurilayotgan oila hech qanday kamko‘stsiz, o‘ziga to‘q yashashiga bo‘lgan istak ifodasidir.

Har biri olti misradan iborat band tuzilishiga ega bo‘lgan bu qo‘shiq yetti va sakkiz hijoli she’riy o‘lchov asosiga qurilgan. Qo‘shiqda mahorat bilan qo‘llanilgan alliteratsiya vositasi “qo‘y – qo‘ton”, “ot – “argon”, “aylanayin – oyginam”, “suv – soyginam” so‘zlarining bosh harflari, ya’ni “q”, “o”, “a”, “s” harflarini bildiruvchi tovushlarning o‘zaro yonma-yon kelishidan hosil bo‘ladigan ohangdoshli matnning musiqiy nafosati hamda badiiy jihatdan go‘zal bo‘lishini ta’minlagan.

O‘rta Zarafshon vohasida istiqomat qiluvchi aholi orasida urf bo‘lgan an’anaga ko‘ra, kelinni kuyovning uyiga olib kelishgach, “kelin o‘tirsin” udumi o‘tkazilgan. Jizzax viloyatining Zomin tumani qishloqlarida kelin qayinlarining hurmatini qilib o‘tirmayotganligini ko‘rgan qaynona esa ezgu tilak-istiklarini bildirib, atagan narsasini keliniga hadya etadi va uni o‘tirishga undab:

Oy qizim, oydin qizim,  
Kunday o‘g‘limni  
berdim,  
  
Qo‘yu to‘qlimni berdim, o‘tira qoling!  
Keng hovlini berdim,  
  
O‘choq boshini berdim, o‘tira qoling! – deydi.

Navoiy viloyatining Xatirchi tumanidagi Uyshun qishlog‘ida istiqomat qiluvchi Rajab momo Xudoyqulovaning aytishiga qaraganda, kelinni kuyovning uyiga olib kelib, chimildiqqa kirgizilgandan so‘ng qaynonasi keladi va kelinining o‘tirishiga ijozat berish uchun:

Kullab yotgan kulimni berdim,  
Gullab yotgan yerimni berdim,  
Bisotimda borimni berdim,  
Hovlimdagi bolimni berdim,  
Qoziqdagi molimni berdim,

O‘tirsin kelin, o‘tirsin, – degan aytimni ijro etadi. Ana shundan keyin, kelin chimildiq tutilgan uyga yozilgan ko‘rpacha ustiga o‘tiradi.

“Kelin o‘tirsin” marosimi va unda ijro etiladigan aytim-qo‘shiqlar kelinni yangi xonadonga qabul qilish hamda ramziy ma’noda unga uy-ro‘zg‘or yumushlarini topshirish vazifasini bajaradi. Qaynona (yoki qaynota) tomonidan aytiladigan aytim hamda shu orqali hadya etilayotgan narsalar (uy, o‘choq, sigir, qozon va h.k.) kelin tushgan oila timsoli bo‘lib, bu narsalarning berilishi orqali kelin yangi oilaning haqiqiy a’zosi, egasi sifatida qabul qilinayotanligini anglatadi. Bu marosim aytimlarida qo‘llanilgan “kul” so‘zi ham ramziy ma’noga ega bo‘lib, o‘choq (olov) kulti bilan bog‘liqdir.

O‘rta Zarafshon vohasi nikoh to‘yi marosimida “kampir o‘ldi” udumi “it irillatar” odati o‘tkazilgandan keyin bajarilgan<sup>2</sup>. Kuyov chimildiq tutilgan uyga kirayotgan paytda eshik ostonasi oldida o‘tirgan uvali- juvali, o‘zidan tinib-tinchib ketgan, bir nikoh ko‘rgan, piru badavlat bir kampir (ba’zan ikki kampir ikki tomonda turib) itga o‘xshab “irillab”, kuyov etagining baridan tishlab tortgan. Kuyov yoki uning jo‘ralaridan biri

ana shu kampirga biror narsa – pul, sovg‘a bergach, u kuyovni ichkariga o‘tkazib yuborgan. Shu tariqa “it irillatar” udumi nihoyasiga yetgach, “kampir o‘ldi” marosimi o‘tkazilgan. Samarqand viloyatining Bulung‘ur tumanidagi Loyqa qishlog‘ida kelin-kuyov chimildiqla kirkach, bir qari kampir bitta yosh bolani quchoqlab uyning burchagida yotadi. Biroz muddat uxlaganday bo‘lib yotgandan keyin o‘rnidan turadi-da shunday deydi:

Bir tush ko‘ribman,  
Ajab-ajab ish ko‘ribman.  
Oldir beshik yonida,  
Qo‘chqorday ul qo‘lida,  
Davlatmi, farzandmi, ish ko‘ribman.

Nikoh to‘yi marosimidagi “kampir o‘ldi” udumida kelin kiradigan uy ostonasi oldida kampirning “o‘lishi” ham ana shunday “o‘zga olam” (ya’ni kelin uchun yangi muhit hisoblangan kuyov xonadoni)ga o‘tish yo‘lidagi bartaraf etilishi zarur bo‘lgan ramziy to‘siq hisoblangan. Qadimiy mifning ritual-marosimiy talqiniga aylangan ushbu udumning bajarilishi chog‘ida muayyan sovg‘a-salom evaziga kampirning “tirilishi” ramziy ma’noda “o‘zga olam”ga o‘tayotgan kelin-kuyovning o‘lib-tirilishini ham anglatgan. Natijada kelin bilan kuyov yangi mohiyat kasb etadilar, ular “bo‘y qiz” va “yigitlik” olami hududini tark etib, “er-xotinlik” dunyosiga o‘tadilar. “O‘zga olam”ga o‘tgan mif qahramonlari yangi nom bilan atalganligi singari nikoh to‘yidan keyin qiz bilan yigitning ham nomlari o‘zgaradi (qiz →kelin→xotin→ona; yigit→kuyov→er→ota).

Shuningdek, O‘rta Zarafshon vohasi nikoh to‘yi marosimining an’anaviy janrlaridan birining nomini bildiruvchi “olqish” janri atamasining qo’llanishi, etimologiyasi va ijro o‘rni, “ololasiz-ololmaysiz”, “tuxum solar”, “chiroq aylantirar”, “sharbat aytishuv” kabi udumlarida ijro etiladigan aytim hamda qo‘shiqlar ham tahlilga tortilgan.

## **2.2. Folklor jamoalari repertuarida xalq folklor qo‘shiqlari**

Milliy qadriyatlarimiz tiklanishiga keng yo‘l ochilgan, ma’naviyat va ma’rifat jamiyatimiz rivojlanishining yetakchi omili ekanligi haqiqatga aylangan hozirgi sharoitda xalq ijodiyoti namunalarini, folklor musiqa san’ati boyliklarini o‘rganish va keng targ‘ib qilishga qulay imkoniyatlar yaratildi. Zero, inson ma’naviyat dunyosining boyligi va ongining musaffoligi, har qanday jamiyatning yetukligini ta’minlashda folklor musiqa san’atining ahamiyati juda kattadir.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” asarida ta’kidlaganidek, – “Musiqa sadolari qaysi xalq yoki millat vakili tomonidan ijro etilmasin, eng ezgu, yuksak va nozik insoniy

kechinmalarni ifoda etadi. Men milliy istiqlol g‘oyasi bugungi tez sur’atlar bilan o‘zgarayotgan dunyoda o‘zligimizni anglash bizning kimligimizni qanday buyuk ajdodlarimiz merosiga, necha ming yillik tarix, betakror madaniyat va qadriyatlarga ega ekanligimizni his etib yashashga – bu boylikni asrab-avaylab, demokratik qadriyatlar, butun jahon taraqqiyoti yutuqlari oziqlantirib, yangi o‘sib kelayotgan avlodga yetkazishga xizmat qilmog‘i zarur deb bilaman”.

Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va bizga meros bo‘lib qolgan betakror folklor xazinasini kelajak avlodlarga yanada rivojlantirib, yanada sayqallab yetkazish davr talabi bo‘lib turgan ushbu kunda folklor san’atini fan sifatida ta’limning barcha tizimlarida o‘qitish, ta’lim standartlariga javob beradigan yangiliklar va o‘quv qo‘llanmalar yaratish vazifalari dolzarb bo‘lib turibdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 1-noyabrdagi “Xalqaro baxshichilik san’ati festivalini o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarorida ta’riflanganidek – “Har qaysi xalqning azaliy tarixi va madaniyati eng avvalo uning og‘zaki ijodi folklor san’atida, doston va eposlarida mujassam topgan bo‘lib, ular millatning o‘zligini anglash, uning o‘ziga xos milliy qadriyatlari va an’analarini saqlash va rivojlantirishda bebahoh manba hisoblanadi”.

Sobiq «sho‘ro»lar davrida o‘zbek xalqining milliy qadriyatlari: udumlari, urfatatlari, musiqa merosi, folklor musiqa ijrochiligi “eskilik sarqiti” sifatida chegaralab qo‘yilgan edi va bu xalq ijodi unutilib ketayozgan edi. Shu sababli, xalqimizning eng qadimiy kuy-qo‘shiqlari, raqslarini ijro etishga, targ‘ib qilishga yo‘l yopilgan edi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan kunlardan boshlab, san’at va madaniyat xodimlari, san’atshunoslar, etnograflar, folklorshunoslar zimmasiga yuksak ma’suliyat yuklandi. Bu ma’suliyat - milliy qadriyatlarmizni qayta tiklash, milliy musiqa merosimiz xazinalarini qidirib topib, qayta jonlantirish bo‘ldi. Folklor musiqa san’ati qisqa davr ichida qayta tiklandi va o‘sdi, rivoj topdi. Respublikamizning barcha viloyatlarida folklor jamoalari tashkil etildi. Mamlakatimiz bo‘ylab barcha ommaviy tadbirlarda, umumxalq bayramlarida folklor jamoalari ishtiroki ta’min etildi. Folklor festivallari, ko‘rik-tanlovlardan tashkil

etildi. Buning natijasida xalq orasida folklor ijrochiligi yanada rivojlandi, professional folklor ijrochilar yetishib chiqdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi ustivor vazifalarga mos holda, kadrlar tayyorlashning ma’no-mazmunini tubdan qayta ko‘rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratish maqsadida qabul qilingan. Unda shunday ta’kidlangan – “Oliy ta’limning ma’naviy-axloqiy mazmunini oshirish, talaba yoshlarga mustaqillik g‘oyalariga, yuksak ma’naviyat va insoniylikning milliy an’analariga sodiqlik ruhini chuqur singdirish, ularda yot g‘oya va mafkuralarga nisbatan immunitet va tanqidiy tafakkurni mustahkamlash bo‘yicha keng ko‘lamli ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish dolzarb vazifamizdir”.

Folklor musiqa san’ati namunalarini to‘plash, uni o‘rganish va zamonaviy ijroga moslab, xalq e’tiboriga havola etish, shu orqali milliy qadriyatlarni o‘rganish, har bir davrda ham dolzarb bo‘lib kelgan. Tarixiy, ilmiy va adabiy asarlar mualliflari ba’zan o‘zgartirilgan va qayta ishlangan shaklda, ko‘pincha esa mazmuniy bayon toarzida folklorga murojaat etganlar.

Folklor termini inglizcha Folk – xalq va lore – donolik so‘zlaridan yasalgan bo‘lib, xalq donoligi, donishmandligi, hunarmandligi, san’atkorligi ma’nolarini bildiradi. Bu termin ilk marotaba 1846 yilda Vilyam Toms tomonidan ilgari surilgan va shundan boshlab xalqaro miqqosda o‘zlashtirilib kelinadi. Folklorni fan sifatida o‘rganish XVII asrda Angliya universitetlarida yo‘lga qo‘yilgan. 1860-1870 yillarga kelib, Rossiya universitetlarida ham folklor fan sifatida o‘rganila boshlandi.

O‘zbekistoda folklorni va folklor musiqa san’atini fan sifatida o‘rganish XX asrning boshlaridan boshlandi. 1920 yillarda G‘ulom Zafariy, Elbek, Muzayyana Alaviyalar viloyatlarga safarlar uyushtirib, folklor musiqa

namunalarini yig‘dilar. 1930-1940 yillarda ular safiga Mansur Afzalov, Sharifa Abdullayeva, Sharif Rajabiylar, keyinchalik esa G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, Maqsud Shayxzoda, Shokir Sulaymon, Sharif Rizolar kelib qo‘sildilar va folklor bilan shug‘llandilar.

Xalq og‘zaki ijodi – folklor qabila, urug‘, elatlar va xalqlarning milliy og‘zaki badiiy ijodiyoti hisoblanib, u ana shu qabila, urug‘, elat va millat, xalqlarning hayot tarzi, udumi, yashash sharoitlari psixologiyasini aks ettiradi. Ularda folklor dovyuraklik, mardlik, jasorat, dadil harakat, dadil fikrni to‘la ifodalaydi. Folkloarning paydo bo‘lishida mehnat asosiy rol o‘ynagan. Odamlar eng qadimgi davrlardanoq yerda tez yugurishni orzu qilganliklari tufayli yovvoyi otlarni qo‘lga o‘rgatib, ot minishni o‘rganganlar. Daryoda uning oqimidan ham tez suzish istagida eshkak va yelkanni ixtiro qilishiga olib keldi, uzoqdan turib dushman yoki yirtqich va ov hayvonlarini daf qilish uchun palaxmon va kamon kabi qurollarni yasadilar. Insonlar mato to‘qishni, yaxshi turar-yashash joyi – kulba, dushman hamlasiga dosh bera oladigan qo‘rg‘onlar qurishni havas qildilar va ularga erishdilar. Shu zaylda mehnat va yashash jarayoni og‘zaki so‘z san’atining xilma-xil xarakter kasb etishini ta’minladi. Og‘zaki so‘z san’ati paydo bo‘lishi jarayonida ibtidoiy odam so‘zning ilohiy-sehrli qudratiga sig‘inar, shu asosda o‘z hatti-haraktlarini belgilar va o‘z mehnatining samarasini baholar edi. Natijada so‘z marosim bilan bog‘lana boshladi, u yoki bu marosimlar mohiyatini ifoda etdi.

Shunday qilib, folklor xalq orzu-umidlarining hayotdagি ifodasiidir. Unda xalqning og‘ir turmush tarzi, tabiat hodisalariga bo‘ysinishga majburligi, ong rivojlanmaganligi sababli yashashning og‘irligi tasvirlanishi bilan bir qatorda, yaxshi turmushi, ovlardagi muvofaqqiyatlari, ertangi kun to‘g‘risida fikr-o‘ylari, orzu-istiklari ham o‘z ifodasini topgandir. Folklor eng qadim zamonlardan boshlab tarixga, tarixiy voqeа va hodisalarga, ijtimoiy o‘zgarishlarga hamroh bo‘lib keldi.

Folklor qadimiy so‘z san’ati sifatida yuksak badiyliги bilan ajralib turadi. Unda voqelikni ifodalashning ertak, doston, maqol, qo‘sish, topishmoq singari xilma-xil janrlari shakllangan. Folklorda tasvirlangan voqelik vaqt-zamon e’tiboriga ko‘ra o‘tmishga daxldor, shu sababli u yoki bu janr tabiatida, shuningdek, til xususiyatlarida o‘sha qadimiylig izlari saqlanib qolingan.

Xalq og‘zaki badiiy ijodi asarlari uzoq muddatli ijodiy jarayonda, og‘izdan-og‘izga, avloddan-avlodga ustozdan-shogirdga o‘tib yuzaga keladi va yashaydi. Shuni aytish o‘rinliki, folklor qadim zamonlarda jamoaning ommaviy ijodi sifatida yuzaga kelib, uning ilk namunalari jamoa ijrosiga mo‘ljallangan. O‘sha zamonlarda yakka ijodkor jamoadan hali to‘la-to‘kis ajralib chiqmagan edi. Davrlar o‘tishi bilan alohida yakkaxon ijrochilar: qo‘sishchilar, ertakchilar, baxshilar qiziqchilar, xalfalar o‘z mahoratlari bilan ko‘rina boshladilar.

Folkorda og‘zakilik – xalq ijodiyotining yashash va yaratilish tarzidir. Chunki u ham yozuv kashf qilinmagan uzoq o‘tmishdagi ajdodlarimiz turish-turmushining, dunyoqarashi va e’tiqodining, kurashi va mag‘lubiyatlarining ifodachisi sifatida yuzaga kelgan. Folklor xotira manbaidan, xotiraning og‘izdan-og‘izga o‘tib yurishidan tug‘ilgan. Folklor musiqa asari og‘zaki aytiladi, kuylanadi, badiiy adabiyot esa faqatgina o‘qiladi. Folklor asari og‘izdan-og‘izga o‘tishi tufayli shaklan va mazmunan har qanaqa o‘zgarishga uchramasin, bu hol uning g‘oyaviy-badiiy va estetik qimmatini tushirmaydi. Chunki, folkloring ijodkori xalqdir.

Folklor musiqa san’atida an’anaviylik o‘ziga xos xususiyatlardan bo‘lib, uning g‘oyaviy-estetik mohiyatini belgilaydi. An’anaviylik xalq ijodida u yoki bu asar matnining og‘izdan-og‘izga o‘tishi jarayonida nisbatan barqarorliginigina anglatib qolmaydi, balki o‘sha asarning avloddan-avlodga o‘tishi jarayonida dastlabki ijrosiga xos xususiyatlarni, kuyi va shaklini, ifodaviy vositalari va qahramonlarini nisbatan o‘zgarmagan holda saqlab qolganini ham anglatadi.

**An'ana** – jamoa ijodkorligining mahsuli, shu bilan birga, folklor asarlarini jamoa hamda yakka holda saqlab qolishning ham o‘ziga xos shakli hisoblanadi. Og‘zakilik folkloarning o‘zgarmas shakli bo‘lib, o‘z navbatida, xotirada saqlamoqni, yoddan aytishni, eslamoqni taqozo etadi. O‘zbek baxshilari orasida qirqdan ziyod an’naviy dostonlarni, qanchadan-qancha termalarni bilgan, kuylagan, yana o‘zi yaratganligi an’naviy ehtiyojning mahsulidir. Shu bilan birga an’naviylik folklor musiqaningga emas, balki xalq musiqasi, raqsi va amaliy san’atining ham o‘ziga xos belgisi hisoblanadi. An’naviylik o‘zining ijtimoiy-tarixiy manbalariga ega. Chunki, folkloarning ilk namunalari ibridoiy jamiyatda yaralgan, ularda o‘sha zamon kishilarining nisbatan qaror topgan urf-odatlari va hayotga oid qarashlari aks etgan. Bu hol folklor asarlari shakli, syujeti, obrazlari va motivlarining barqarorlik kasb etishini ta’minlagan.

**Variantlilik** - folklor musiqa san’atining yashash tarzidir. Xalq ijodiyoti namunalari jonli ijro jarayonida xilma-xil variyantlardagina yashaydi. Variantlilik folklor musiqa asarlarining tabiati, uning yaratilishi va jonli og‘zaki ijodda yashash qonuniyatlaridan kelib chiqqan xususiyat bo‘lib, u folklor asarlarining syujeti, obrazliliği, poetikasi, janr xususiyatlarini to‘la qamrab oladi.

**Variant** – ma’lum bir asarning jonli-og‘zaki epik an’ana zaminida vujudga kelib, bir-birini inkor etmasdan yonma-yon yashay oladigan va o‘zaro farqlanuvchi turli-tuman nusxalardir. Misol uchun, “Qoshiq o‘yin”i Respublikamiz viloyatlarida har xil variantlarda ijro etiladi. Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand va Jizzax viloyatlari folklor musiqa san’atida bu raqs qadimdan mavjud, lekin har bir viloyatda raqs har xil variantda ijro etiladi.

Variantlilikning muhim bir xususiyati voqeа ichida mavjud bo‘lishidir. Binobarin, voqelik birmuncha keng hodisa bo‘lib, u asarda olg‘a surilgan g‘oyaviy, shuningdek, asarning kompozitsiyasi va badiiy tasvir vositalari jihatidan bir-biridan keskin farq qiluvchi xalq og‘zaki ijodining bir syujet va bir janrdagi namunalaridan iborat. Shunday qilib, folklor musiqa san’atida variantlilik folklor asarlarining xalqchilligini, ommaviyligini hamda tarqalish chegaralarini belgilaydi.

### **Nazorat savollari**

1. *NMM Konvensiyasi O‘zbekistonda qachon ratifikatsiya qilingan?*
2. *O‘zbekiston qachondan NMM Konvensiyasining ishtirokchisiga aylandi?*
3. *O‘zbekistonda NMM muhofazasi bilan bog‘liq Davlat dasturi qachon qabul qilingan?*
4. *Nomoddiy madaniy meros muhofazasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar qachon tasdiqlangan?*
5. *Qonunchilikka NMM bilan bog‘liq o‘zgartirish va qo‘sishimchalar qachon kiritilgan?*
6. *O‘zbekistonda NMMning nechta ro‘yxati yuritilishi belgilangan?*
7. *Ro‘yxatlar kim tomonidan tasdiqlanadi?*
8. *Ro‘yxatlarni yuritish tartibi qaysi hujjatda belgilangan?*
9. *Tarixiy-madaniy ekspertiza kim tomonidan o‘tkaziladi?*
10. *Davlat dasturi nechta banddan iborat?*

### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Madaniyat sohasiga oid meyoriy hujjatlar to‘plami. O‘z.R.Madaniyat va sport ishlari vazirligi, 2010 y.
2. List of Intangible Cultural Heritage in Need of Urgent Safeguarding. UNESCO, 2009.
3. Basic Text of the Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage, UNESCO, 2014, Paris.
4. O‘.Toshmatov, N.Isakulova. Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilishning huquqiy asoslari (monografiya). Toshkent, 2015 y.
5. Osnovniye teksti Mejdunarodnoy konvensii ob oxrane nematerialnogo kulturnogo naslediya. YUNESKO, 2014 g.

## **IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI**

## IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

### 1-amaliy mashg‘ulot: Folklorda tur va janrlar. (2 soat)

**Ishdan maqsad:** Bunda musiqa, raqs, xalq tomosha san’atining barcha janrlarini namoyish etishga (hoh u sahnada bo‘lsin, hoh maydonda, hoh kichik davrada) mo‘ljallangan janrlar ijrochilik san’ati tarkiblari o‘rganiladi.

**Maqsadning qo‘yilishi:** Ijrochilik san’atining barcha janrlarini qamrab olmagan holda misol tariqasida quyidagilarni keltirish mumkin.

**Musiqa** yo‘nalishi bo‘yicha: “Shashmaqom”, “Xorazm maqomlari”,

“Toshkent-Farg‘ona maqom yo‘llari”, Dutor va surnay maqom yo‘llari, “Tanovor”, “Ushshoq”, “Feruz”, “Suvora”, “Lazgi”, “Mavrigi”, “Miskin” singari turkumlar, “Katta ashula”, allalar, o‘lanlar, yallalar, laparlar, madhiyalar, termalar, shuningdek, “baxshichilik”, “xalfachilik” va hududga xos boshqa yo‘nalishdagi manbalar.

**Raqs** yo‘nalishi bo‘yicha: Farg‘ona, Xorazm, Buxoro, Surxondaryo raqs maktablari, hududlarga xos bo‘lgan raqslar va raqs harakatlari, shu jumladan, bolalar, erkaklar, ayollarning yakka va guruhli raqslari.

**Tomosha san’ati** yo‘nalishi bo‘yicha: dorbozlik, polvonlik, an’anaviy sirk, ko‘zboylog‘ichlik, qo‘g‘irchoqbozlik, masxarabozlik, morbozlik, besuyaklik o‘yinlari, yog‘och oyoq o‘yinlari, milliy xalq o‘yinlari va boshqalar.

**Urf-odat, marosim va bayramlar, madaniy makonlar.**

*Urf-odat, marosim va bayramlar* tarkibiga mehmondo‘stlik an’analari, axloq-odob bilan bog‘liq urf-odatlar, farzand tarbiyasi bilan bog‘liq marosimlar, beshik to‘yi, ism qo‘yish marosimi, sunnat to‘yi, sovchilikka borish, kelin salom, milliy va mahalliy miqyosda o‘tkaziladigan sayllar, hasharlar, tomoshalar, bayramlar va boshqalarni kiritish mumkin.

Quyidagi qo‘shiqlar yoki ashulani talabalarga o‘rgatish uchun tayyorlanish mumkin.

# FOLKLOR MUSIQA ASARLARIDAN NAMUNALAR

## Садаға

Үртача

Халқ сүзи  
С.Курбонов мусиқасы

**Нақорат**

Са-да-га, са - ти-гинг бў-лай. О-шин-га қа - ти-гинг бў-лай.

**Уй-ги-нан - га** меҳ-мон кел-са киш-та - ла қо - ши-гинг бў-лай.

**Якка**

Қал-дир-точ-нинг қа-но - ти-дай, қо җиңг-дан ай - ла-най се-нинг.

**Нақорат**

Са-да-га са - ти-гинг бў-лай, о-шин-га қа - ти-гинг бў-лай.

**Уй-ги-нан - га** меҳ-мон кел-са, киш-та - ла қо - ши-гинг бў-лай.

Naqorat

Sadag‘a satig‘ing bo‘lay,  
oshinga qatig‘ing bo‘lay.  
Uyginanga mehmon kelsa,  
kishtala qoshig‘ing bo‘lay.

Qaldirg‘ochning qanotiday,  
qoshingdan aylanay sening.  
Qattiq yerning sholg‘omiday,  
boshingdan aylanay sening.

Naqorat

Samarqandning kulchasiday,  
yuzingdan aylanay sening.  
Kentalaning kechasiday,  
ko‘zingdan aylanay sening.

Naqorat  
Oqsaroyning qo‘rg‘oniday,  
uyingdan aylanay sening.  
O‘rtabo‘zning teragiday  
bo‘yingdan aylanay sening.

Naqorat

# МЕХМОНЖОН

Халқ сүзи  
С.Курбонов мусиқасы

Үртача

Якка

Жон, жон, жон у - ка - жон дас - ти - ёр жон у - ка - жон.

Бог-лаб мек-мон то - ий-ни, о - либ кел-тин чо - ий-ни.

Нақорат

О-линг, о - линг мек - мон - жон, та - тиб кў-ринг мек-мон - жон.

Jon, jon, jon ukajon,  
dastiyor jon ukajon.  
Bog'lab mehmon toyini,  
olib keling choyini.

Naqorat

Oling, oling, mehmonjon,  
ichib ko'ring mehmonjon.

Jon, jon, jon ukajon,  
dastiyor jon ukajon.  
Bizga kelibdi mehmon,  
olib keling issiq non.

Naqorat

Oling, oling, mehmonjon,  
tatib ko'ring mehmonjon.

Jon, jon, jon ukajon,  
dastiyor jon ukajon.  
Otga iling to'rvani,  
mehmon ichsin sho'rvani.

Naqorat

Oling, oling, mehmonjon,  
ichib ko'ring mehmonjon.

Jon, jon, jon ukajon,  
dastiyor jon ukajon.  
O'zingiz yeng holvani,  
mehmon yesin olmani.

Naqorat

Oling, oling, mehmonjon,  
tatib ko'ring mehmonjon.

## FERUZ I

Ogahiy g'azali  
Xorazm mumtoz yo'llaridan

M. M.  $\text{♩} = 80$

The musical score consists of ten staves of music. The first staff begins with a treble clef, a 3/4 time signature, and a key signature of one sharp. The tempo is marked as  $\text{♩} = 80$ . The lyrics are written below each staff, corresponding to the musical notes. The lyrics are as follows:

Mush\_kin qo\_shing \_ ni hay \_ 'a\_ti  
(ey) ul chash\_mi jal \_ lod uz \_ ti \_ na,  
(ey) qat \_ lim u \_ chun nas kel \_ tu \_ rur (yo\_ \_  
re ) nun el \_ ti \_ bon sod  
us \_ ti \_ na (ey)  
Qil \_ g'il ta \_ mo \_ sho qo \_ ma \_ tin  
ze \_ bo \_ si bir \_ lan o \_ ra \_ zin,  
gar ko'r \_ ma\_sang gul o'l \_ g' \_ nin (yo \_  
re ) pay \_ von \_ di sham \_ shod  
us \_ ti \_ ma (ey).  
No \_ zu a \_ do \_ yu g'am \_ za \_ si

(ey) qat \_ lim qi \_ lur \_ lar dam ba \_ dam,  
 vah mun \_ cha o \_ fat \_ mu bo' \_ lur (yo \_  
 — re ) bir o — da \_ mi \_ zod  
 us \_ ti \_ na (ey).  
 Men xas \_ ta \_ ga jon as \_ ra \_ mak (ey)  
 en \_ di e \_ lur  
 dush — vor \_ kim , (ey) qo \_ til ko' \_ zi  
 be — dod e\_ tar (ey) har kah \_ za be \_  
 dod us \_ ti \_ na (ey)  
 yor — yo — rey),  
 Bo \_ shim \_ g'a yoq \_ qan g'am to \_ shin (ey)  
 ming \_ din bi \_ ri \_  
 cha bo'l \_ ma \_ g'ay (ey)

A handwritten musical score for a vocal piece. The score is organized into ten staves, each consisting of a treble clef, a key signature of one sharp, and a common time signature. The music features various rhythmic patterns, including eighth and sixteenth notes, and rests. The lyrics are written in both Korean and English, with some words underlined or in parentheses. The lyrics are as follows:

yor yo \_ rey),  
 gar \_ dun a \_ gar ming Bes \_ tun (ey)  
 yog' \_ dur sa far \_ xod us \_ ti \_ na (ey)  
 yor yo \_ rey).  
 Ey, shoh, ka \_ ram ay —  
 lar cho\_g'i (ey)  
 teng tut yo \_ mo nu yax)shi \_ ni , (ey  
 yor yo \_ rey ),  
 kim , teng qu \_ yosh nu \_ ri tu \_ shar  
 (ey) vay ro \_ nu o \_ bod us \_ ti \_ g'a (ey  
 yor yo \_ rey ).  
 Ne jur'at i \_ la  
 O \_ ga \_ hi ( ey )

A musical score for a vocal piece, likely a children's song or lullaby. The music is written in four staves of G clef, common time, and consists of quarter notes and eighth notes. The lyrics are written below each staff, separated by vertical bar lines corresponding to the measure boundaries. The lyrics include words in English, Spanish, and possibly French or German, with some words in parentheses and others followed by a comma. The score includes two endings, indicated by Roman numerals I and II.

och \_ gay      o \_ g'iz      so'z      der \_ ga \_ kim,  
(ey)                yuz    hay \_ li    g'am    qil \_  
mish hu \_ dum (yo) \_ re )      UI zor.      no  
shod                us \_ ti \_ na,      (ey)      (ey).

## **2- amaliy mashg‘ulot: Folklor asarlari strukturasi. Folklor asarlarining zamonaviy talqinlari (2 soat)**

**Ishdan maqsad:** Buyuk ipak yo‘lining paydo bo‘lishi xalqaro munosabatlar rivojida muhim ahamiyatini o‘rganish. Uning tarmoqlari nafaqat savdo-iqtisodiy aloqalarga, shuningdek, madaniy muloqoti haqida.

**Maqsadning qo‘yilishi:** Mazkur mavzu adabiyotlarda yetarlicha tahlil etilgan. Ipak yo‘lining chorrahasida joylashgan O‘rta Osiyo Sharqiy Turkiston va Uzoq Sharq hududlariga turli dinlarning tarqalishida (buddaviylik, zardushtiylik, moniylik, xristian) katta o‘rin tutgan. Mazkur dinlar ma’naviyat rivojida muhim ahamiyat kasb etgan. Qo‘shni o‘lkalarga yozuv (sug‘d, parfiya yozuvi) va yangi musiqa asboblarining kirib borishi O‘rta Osiyo ta’sirida ro‘y berdi. Xitoyda VII-VIII asrlarda buxorolik, samarqandlik, chochlik musiqachilar mashhur bo‘lgan. Mintaqaning o‘zida tolerantlikning rivojlanishi madaniyatning ko‘p xilligida va diniy bag‘rikengligida o‘z aksini topgan. Misol tariqasida, Surxondaryo vohasida turli shakldagi yozuv namunalarini aniqlangan. Oromiy va yunon yozuvlari asosidagi baqtriya yozuvi, yunon yozuvi, hind-kxaroshtxi va braxma yozuvlari shular jumlasidan. Shuningdek, qo‘hna Termizda, Fayoztepa va Qoratepada Buddha ibodatxonalarini, Dalvarzintepada Buddha ibodatxonasi va hayvonot olami ilohasi Nana ibodatxonasi (kushonlar davri) hamda qadimgi shahar tevaragida zardushtiylar maqbarasi – novus o‘rganilgan Bunday holat mintaqaning turli viloyatlarida namoyon bo‘lgan. Marg‘iyonaning Marv shahrida antik davri va ilk o‘rta asrlarga oid arxeologik va yozma ma’lumotlarga ko‘ra, moniylik, yahudiylilik, xristianlikning oqimi nasroniylik va buddaviylik dinlari rivoj topgan. Ular bilan birga, mahalliy e’tiqodlar ona ilohi va olovga sig‘inish tarqalgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, Marvda mahalliy aholi bilan birgalikda yahudiylar, buddaviylik va xristian dini targ‘ibotchi – qohinlari va boshqa xalqlarning vakillari yashaganligi ehtimoldan xoli emas. Janubiy Orolbo‘yi Xorazm vohasida ham e’tiqodlar va diniy qarashlar turlicha bo‘lgan. Zardushtiylik va hosildorlik e’tiqodi, olovga, ajdodlar ruhiga hamda o‘lib borayotgan va jonlanayotgan tabiatga sig‘inish shular jumlasidan. Olov ibodatxonalarini mil.avv. V asrga oid Katta Oybo‘yirqal’a va Xumbuztepada, hosildorlik e’tiqodi bilan bog‘liq ibodatxonalar Quyiqirilganqal’a va Qal’aliqir 2 da (mil.avv.IV-II asrlar) topib tekshirilgan. Ilohalari tasviri Elxaras ibodatxonasida aniqlangan (mil.avv. V-IV asrlar chegarasi). Tuproqqal’a saroy-ibodatxonasida (milodiy III asr) shohlar ajdodlari ruhlariga ta’zim qilish an’analari saroy haykallari tasvirlarida o‘z aksini topgan. Hukmdor – ajdodlar mavzusi Oqshaxonqal’a devoriy rangtasvirlarida ham mavjud (mil. avv. II-I asrlar). Xorazm, Sug‘d va Baqtriya hududlarida, baqtriya yozuvlaridan ma’lum “Vaxshubago” (Vaxshu xudosi),

xususan, Amudaryo bilan bog‘langan suv va daryo e’tiqodi tarqalgan, shuningdek, xudo-chavandoz Siyovush va “shox-cho‘pon” (Kubodshoh) siymolari bilan bog‘langan e’tiqodlar ham rivojlangan. Narshaxiy Siyovushning Buxoroda “somonfurushlar darvozasining ichkarisiga” dafn etilishi va bu joyning ziyoratgohga aylanishi haqida shunday yozadi: “Buxoro otashparastlari o‘sha joyni aziz tutadilar va unga atab har bir erkak kishi har yili Navro‘z kuni quyosh chiqishidan oldin o‘sha joyda bittadan xo‘roz so‘yadi”. O‘rta Osiyo qadimiy aholisining dunyoqarashi va ma’naviyati rivojlanishi darajasi turlicha san’at namunalarida ifodalangan (haykaltaroshlik, devoriy rangtasvirlar, ossuariylar tasvirlari). Ular ko‘p hollarda mintaqa xalqlari madaniyatining umumumiyligidan dalolat beradi. Qadimgi davr va ilk o‘rta asrlar O‘rta Osiyo xalqlari tarixida tolerantlikka oid talaygina misollar keltirish mumkin. Bu borada turli din va e’tiqodlar tarafdostrarining yashash joyini tanlash huquqi cheklanmagan. Ular shaharlar umumiyligi hududiy guzarlarida joylashib, turli kasb-hunar sohalari bilan shug‘ullanish imkoniyatiga ega edi. Odamlar o‘z diniy bayramlari va marosimlarini erkin amalga oshirishgan. Zardushtiyarning otashgohlari, buddaviylik, xristian va yahudiylilik ibodatxonalarining yonma-yon qurilishi man etilmagan. Boshqa e’tiqodlar va o‘z ma’budalariga sig‘ingan kishilarga nisbatan dushmanlik kayfiyati hamda irqiy nafrat mavjud bo‘lmagan. Shu bois, ilk o‘rta asrlarda Choch, Farg‘ona vodiysida va Yettisuv vohalarida buddaviylik dini va xristianlik ta’limoti tarqaladi.

Sug‘diylarning Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab Sharqiy Turkiston va Uzoq Sharq hududlariga migratsiyalari tufayli, Xitoydagi Chanyan, Loyan va Kayfan shaharlarida otashgohlar, ya’ni olov ibodatxonalarini bunyod etilgan. Qadimgi davr va ilk o‘rta asrlarda turli e’tiqod va diniy qarashlar doimo bir-biriga ta’sir qilgan va o‘zaro boyigan. Sug‘diylar, baqtriyaliklar, xorazmliklar, chochliklar va farg‘onaliklar o‘zga qabilalar va elatlarga madaniy yutuqlarni yetkazishda muhim o‘rin tutgan. Xalqaro madaniy muloqot dunyoqarashning yangi asoslarda rivojlanishiga zamin yaratgan. Ma’naviy madaniyat taraqqiyoti darajasi betakror san’at namunalarida ifodalangan. San’at obidalarida ezgulik, yaratuvchanlik va go‘zallikka intilish o‘z aksini topgan

### **3- amaliy mashg‘ulot: Folklor asarlarining zamonaviy talqinlari. (2 soat)**

**Ishdan maqsad:** Har bitta tinglovchi o‘z musiqa yo‘nalishi bo‘yicha o‘zining pedagogik faoliyatida nomoddiy madaniy merosdan qay darajada foydalanayotganligi to‘g‘risida ma’lumot beradi. Hozirgi kunda O‘zbekiston kompozitorlari murojaat etayotgan zamonaviy musiqiy janrlar tahlil etilib, shu yo‘nalishda samarali faoliyat olib borayotgan kompozitorlar ichidan o‘z ijodiy faoliyatida milliy kuy va qo‘shiqlardan yaxshi foydalanayotganlari saralab olinadi va ularning ijodi o‘rganiladi. Tinglovchilarning tavsiyasiga ko‘ra bir nechta turli janrlarda yaratilgan musiqiy asarlar notalari (agar imkon bo‘lsa audi yoki video variantlari bilan) muhokama qilinadi va kompozitorning xalq kuy va qo‘shiqlaridan foydalanish uslubi o‘rganiladi. Imkon bo‘lsa, tinglovchilar ichida bitta xalq kuyi yoki qo‘shig‘ini bir necha xil janrda foydalanish bo‘yicha kichik guruhlarga bo‘lingan holda mashg‘ulot o‘tkazish ham mumkin.

**Maqsadning qo‘yilishi:** Amaliy mashg‘ulotdan ko‘zlangan maqsad tinglovchilar o‘z pedagogik faoliyati davrida o‘z talabalariga xalq kuy va qo‘shiqlaridan samarali foydalanish uslublari va yo‘llarini o‘rgata olish ko‘nikmasini yetkaza bilishini ta’minlashdan iborat.

Misol sifatida beriladigan qo‘shiqlar notalari:

# Ҳамал келди

Ш.Раҳматуллаев шеъри  
С.Қурбонов мусиқаси

Ўртacha



Ўғил



Ҳа - мал кел - ди, Нав - рўз де - ган фар - мон кел - ди,

Кизлар



Ба - хор се - пи гул - лар хир - мон, хир - мон кел - ди.

Ўғил



Мо - мо - жон - лар су - ма - лак - ни пи - ши - ринг - лар,

Киз



Дил - да ку - вонч, лаб - да кул - ги хан - дон кел - ди.

Ўғил



Гул я - ша-риш ха - ёт - га бош йў - рик бу кун,

Киз



Гул - ла - ди - лар нок, шаф - то - ли, ў - рик бу - кун.

Ўғил



Ду - о қил эй ди - линг, оў - зинг, кў - зинг би - лан

Киз



Нав - рўз о - лам ти - рик - лик - ка кў - рик бу - кун.

Hamal keldi, Navro‘z degan farmon keldi. bahor sepi – gullar xirmon-xirmon keldi.  
Momojonlar sumalakni pishiringlar, dilda quvonch, labda kulgi-xandon keldi.

Gul yasharish hayotga bosh yo‘riq bukun, gulladilar nok, shaftoli, o‘rik bukun.  
Duo qil ey diling, ko‘zing, so‘zing bilan, Navro‘z olam tiriklikka ko‘rik bukun.

## Сумалак

Ш.Раҳматуллаев шеъри  
С.Қурбонов мусиқаси

### Қувноқ

Кай - во - ни - лар буғ - до - ии - ни ун - ди - ра - ди. Ке-лин - чак-лар

у - ни ту - ыйб тин - ди - ра - ди. Ўс - пи-рин-лар су - ма - лак - ка

ў - чок қа - зар Чা - ван - доз-лар о - хи - ри - ни эн - ди - ра - ди.

Ба - хор та - о - ми су - ма - лак, Нав-рӯз ка - ло - ми су - ма - лак.

Кир бе - ти - да кир-қин қиз-лар қа - тор, қа - тор. Бўз бо - ла - лар

кенг да - ла - да о - шиқ о - тар. У - юр - лар - да ай - гир, би - я

туб - ла-ша-ди. Ку-лун - той-лар ша-мол-дан тез кув - ла-ша-ди.

Kayvonilar bug‘doyini undiradi,  
kelinchaklar uni tuyib, tindiradi.  
O‘spirinlar sumalakka o‘choq qazar,  
chavandozlar oxirini endiradi.

Naqorat  
Bahor taomi sumalak,  
Navro‘z kalomi sumalak.

Qir betida qirqin qizlar qator-qator,  
bo‘z bolalar keng dalada oshiq otar.  
Uyurlarda ayg‘ir, biya tuvlashadi,  
quluntoylar shamoldan tez quvlashadi.

Naqorat  
Bahor taomi sumalak,  
Navro‘z kalomi sumalak.

Желагим

## Халқ сүзи

С.Курбонов мусиқасы

КУВНОК

A musical score in G major, 6/8 time. The melody consists of eighth and sixteenth notes. The lyrics 'Жела-гим' are written below the staff.

Же - ла - гим      хо - же - ла - гим.

A musical score for piano in G major. The first measure shows a treble clef, a key signature of one sharp, and a common time signature. The notes are quarter notes and eighth notes. The second measure continues with the same pattern. A double bar line with repeat dots is at the end of the second measure. The third measure begins with a bass clef, indicating the start of the left hand's part.

Хо-сил бўл - син ти - ла-гим.

Се - ни кий - сам ке - ла - ди,

ўй - наб ўй - наб куй - ла - гим, ўй - наб ўй - наб куй - ла - гим.

Якка

A musical score for the song 'Желагим'. The notation is in G major, common time, and consists of two staves. The first staff contains the lyrics 'Же-ла-гим а - ла - ча-дан,' and the second staff contains 'Суй-га-ним Күр - гон-ча-дан.' The music features eighth and sixteenth note patterns.

Же - ла - гим а - ла - ча - дан,

Суй-га-ним Күр-ғон-ча-дан.

A musical score for 'The Star-Spangled Banner' in G major. The key signature is one sharp. The melody is shown in a single line on a treble clef staff. The notes include eighth and sixteenth notes, with some slurs and grace notes. The score ends with a double bar line and a repeat sign.

Же-лак ки - йиб ю-ра-ман,                   ке-ли-шим Беш ар - ча-дан.   Хей...!

Musical notation for the song 'Сур-хоним-нинг то-ви бор-тov-la-ri-da о-vi бор.' The notation consists of a treble clef, a key signature of one sharp, and a common time signature. The melody is composed of eighth and sixteenth notes. The lyrics are written below the notes.

Сур-хо-ни-нинг то - ви бор, тов - ла - ри - да о - ви бор.

A musical score for a single melodic line. The key signature is one sharp (F#). The time signature is common time (indicated by a '4'). The melody consists of eighth and sixteenth notes. The lyrics are written below the notes: 'Жела-гим - га я-раш-ган а - ла - ча - - дан бо - ви бор.' The vocal range starts around middle C and goes up to approximately G4.

Изучение языка и культуры народов мира для 8-го класса

# Naqorat ka jala

Jelagim, ho jelagim,  
hosil bo'lsin tilagim.  
Seni kiysam keladi,  
o'ynab-o'ynab kuylagim.

Jelagim alachadan,  
suyganim Qo‘rg‘onchadan.  
Jelak kiyib yuraman,  
kelishim Besharchadan.

Jelaging uchar yelda,  
chilvir chaqmog‘ing belda.  
Ko‘zing olma teradi,  
muddaong nima dilda.

Qo'rg'onchada suyganing,  
Besharchada kuyganing.  
Qiz tanlashmi yurt kezib,  
jelagingga tuyganing.

Heye..y! Surxonimning tovi bor,

*tovlarida ovi bor.*

Jelagimga yarashgan,  
alachadan boyi bor.

Naqorat  
Чүпон дүэти

**Кувнок**

Халк сүзи  
С.Курбонов мусиқасы

Үғил

Күн-ги-рот эл-да қүй боқ - ди-мо, бүй-ни - га қүн-ги-роқ тақ - дим.

О-шик бүл-дим ў-зин - га - ё қо-шинг би-лан кү-зин - га.

Киз

Ко-ши-миз қа-lam а - ка - жон, о - шиқ-лик а - lam а - ка - жон.

Бүйим-га тенг мас бүйин - гиз - а, се-пим-га ет- мас күйин - гиз.

Үғил

Ё - ни - ба кел-дим э-линг - да - на, Сув-са - ба кел-дим чү-линг - дан.

Бир-ги - на ко - са сув бер - ги - на, тол хи-вич-да-йин кү-линг - дан.

Киз

Сув бе - ра - ма - на са - воб - га, ко - са бе - ра - йин та - воб - га.

Бир-ги - на қи-лиқ бош-лай - си - за, би - ла - гим - да - на уш-лай - сиз.

Үғил

А - ла - ча түн - ни кий-май - ман, а - ла - ча қоп - га ўх-шай - тиб.

Биргаликда

Ха - зил - ни қүйинг куй - лай - лик. Ал - ёр - ни ай-тинг ўй - най - лик.

О - на юр - ти - миз тинч бүл - си - но, бир - га қү - ши - либ қув-най - лик.

**Yigit:** - Qo‘ng‘irot elda qo‘y boqdim-a, bo‘yniga qo‘ng‘iroq taqdim.  
Oshiq bo‘ldim o‘zingga-ya, qoshing bilan ko‘zingga.

**Qiz:** - Qoshimiz qalam akajon, oshiqlik alam akajon.  
Bo‘yimga tengmas bo‘yingiz-a, sepimga yetmas qo‘yingiz.

**Yigit:** - Yonib-a keldim elingdan-a, suvsab-a keldim cho‘lingdan.  
Birgina kosa suv bergin-a, tol xivichdayin qo‘lingdan.

**Qiz:** - Suv beraman-a savobga, kosa berayin tavobga.  
Birgina qiliq boshlaysiz-a, bilagimdana ushlaysiz.

**Yigit:** - Alacha to‘nni kiymayman, alacha qopga o‘xshatib.  
Boshqa yorni-ya demasman-o, sizginani qaqlatib.

**Birgalikda:** - Hazilni qo‘ying kuylaylik, alyorni ayting o‘ynaylik.  
Ona yurtimiz tinch bo‘lsin-a, birga qo‘shilib quvnaylik.

# Сумалак қайнагани

Халқ қүшігі

Тез

Нақорат  
Су - ма - лак, су - ма - лак

Су - ма - лак қай - на - га - ни

қай - на - га - ни, Жү - ра - лар ўй - наб ке - линг

яй - ра - га - ни. Хей...

Су - ма - лак ба - хор гу - ру -

ри. Су - ма - лак Нав - рұз шу - ру -

ри. Су - ма - лак дил - лар шу - у -

ри. Кел - гу - си йил ё на - сиб.

Naqorat

Sumalak qaynagani, qaynagani,  
jo‘ralar yayrab keling o‘ynagani.

Hey! Sumalak bahor g‘ururi,  
sumalak Navro‘z sururi.  
Sumalak dillar shuuri,  
kelgusi yil yo nasib.

Naqorat

Hey! Sumalak oshi yilboshi,  
sumalak soylarning toshi.  
Jo‘ralar oling taloshib.  
kelgusi yil yo nasib.

Naqorat

## V. GLOSSARY

## V. GLOSSARIY

<b>Termin</b>	<b>Mazmuni</b>
madaniy meros	moddiy va nomoddiy madaniy meros yig‘indisi
moddiy madaniy meros	Moddiy qiymatga ega madaniy meros
nomoddiy madaniy meros	Og‘zaki tarzda ajdoddlardan avlodlarga uzatiladigan meros
Konvensiya	Xalqaro miqyosda kelishuv, bitim turi
Operativ yo‘riqnama	Konvensiyani amalga tatbiq etish bo‘yicha ko‘rsatmalar to‘plami
Reprezentativ ro‘yxat	Nomoddiy madaniy meros konvensiyasining namoyish etish, ko‘rsatish maqsadida tuzilgan ro‘yxati
Eng ilg‘or tajribalar reyestri	YUNESKOning nomoddiy madaniy meros muhofazasi borasida erishilgan eng yaxshi tajribalarni qayd etish hujjati
hamjamiyat	Bir maqsadni ko‘zlagan yoki bir hududda joylashgan holda uyushgan jamiyat
muhofaza	Nomoddiy madaniy merosni asrash, saqlash, muhofaza qilish, targ‘ib etish ma’nosida qo‘llaniladi
Bosh Assambleya	Nomoddiy madaniy meros borasidagi Konvensiyani boshqaruvchi eng yuqori tashkilot
Hukumatlararo Qo‘mita	Ishtirokchi-davlatlar orasidan 4 yil muddatga saylanadigan boshqaruv qo‘mitasi
nomoddiy madaniy meros sohalari	Nomoddiy madaniy meros namoyon bo‘ladigan sohalar
ijro san’ati	Sahna (davra, maydon va boshqa)da ijro etish uchun mo‘ljallangan nomoddiy madaniy meros namunalari
urf-odat	Ma’lum bir muhitda tartibga solingan va riosa qilinadigan harakatlar majmui
marosim	Yozilmagan qoidalarga riosa qilgan holda o‘tkaziladigan tadbir
hunarmandchilik	Inson ehtiyojlari uchun zarur mahsulotlarni an’anaviy bilimlar asosida ishlab chiqarish

kandakorlik	Metall bilan ishlashga yo‘naltirilgan hunarmanchilik yo‘nalishi
besuyakbozlik	Inson tanasining bukiluvchanlik imkoniyatlarini namoyish etish janri
dostonchilik	Dostonlarni ijro etish
xalfachilik	Xorazm hududida tarqalgan, ayollar tomonidan ijro etiladigan qo‘sish ijrochiligi janri
suvora	Qadimda otliqlar tomonidan ijro etilgan, hozirda sikl sifatida shakllangan ashula janri

## **VI. KEYSLAR**

**Quyidagilar ichidan faqat ijrochilik san'atigagina taalluqli elementlarni ko'rsatib bering:**

- Askiya
- Raqs
- Boston ijrochiligi
- Cholg'u ijrochiligi
- Lapar
- Yalla
- Dorbozlik
- Qo'g'irchoqbozlik
- Alla
- Maqom ijrochiligi
- Maqom musiqasi
- Lazgi musiqasi
- Tanovar kuyi
- Xalfachilik
- Morbozlik

**II. Quyida berilgan nomoddiy madaniy meros sohalariga xos elementlarni aniqlang:**

1. O'zlikni namoyon qilishning og'zaki shakl va an'analari
2. Ijrochilik san'ati
3. Urf-odat, marosim va bayramlar
4. Tabiat va koinotga oid bilim va ko'nikmalar
5. An'anaviy hunarmandchilik

**III. Quyidagi berilgan ro'yxat va Reyestrga O'zbekistonidan qaysi meroslar kiritilganligini aniqlang:**

Reprezentativ ro'yxat

Zudlik bilan muhofaza qilinishga muhtoj nomoddiy madaniy meros ro'yxati  
Eng yaxshi tajribalar Reyestri

**IV. Quyida ko'rsatilgan hududlarga xos nomoddiy madaniy meros elementlarini va ularning qaysi sohaga hosligini aytib bering**

Qoraqalpog'iston

Toshkent shahri

Namangan viloyati

Andijon viloyati  
Farg‘ona viloyati  
Jizzax viloyati  
Samarqand viloyati  
Navoiy viloyati  
Buxoro viloyati  
Xorazm viloyati  
Qashqadaryo viloyati  
Surxondaryo viloyati  
Sirdaryo viloyati  
Toshkent viloyati

**V. Quyidagi musiqa namunasini eshitib, uning qaysi hududga xosligi va qaysi cholg‘uda ijro etilganini aniqlang.**

- Yallama yorim
- Lazgi
- Tanovar
- Mavrigi
- Suvora
- Lapar
- Yalla
- Cho‘poncha
- Buxorcha
- Xalfa qo‘shig‘i
- Chipra dalli
- O‘zgancha
- Qashqarcha
- Yor-yor

## **VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

## **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarları**

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

### **II. Normativ-huquqiy hujjatlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlucksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr

“Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-tonli Qarori.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 20 dekabrdagi “Madaniy meros obektlarini muhofaza qilish” to‘g‘risidagi Qarori.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 4 fevraldagi “Milliy raqs san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 maydagi “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF–6000-son Farmoni.

### **SH. Maxsus adabiyotlar**

19. SH.Turdimov. Epos va etnos. Toshkent, O‘zbekiston nashriyoti 2012 y.
20. T.Mirzayev. Hodi Zarif suhbatlari. Toshkent, 2013 y.
21. T.Mirzayev. Xalq baxshilarining epik repertuari. Toshkent, Fan nashriyoti, 1979 y.
22. M.Murodova. Folklor va etnografiY. Toshkent, 2008 y.
23. J.Eshonqulov. Folklor: obraz va talqin. Qarshi, Nasaf nashriyoti, 1999 y.
24. M.Jo‘rayev, J.Eshonqulov. Folklorshunoslikka kirish. Toshkent, 2017 y.
25. O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosi ro‘yxati. Hilol nashr MChj, Toshkent, 2016 y.
26. Intangible cultural heritage of Uzbekistan (O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosi). ICHCAP, IICAS, YUNESKO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Milliy Komissiyasi nashri. Mega Basim, 2017 y. <https://www.unesco-ichcap.org/publications-archive/intangible-cultural-heritage-in-uzbekistanuzbektili/>
27. Nomoddiy madaniy meros va barqaror rivojlanish. YUNESKO nashri
28. Nomoddiy madaniy meros va gender masalasi. YUNESKO nashri
29. What is intangible cultural heritage. Published by UNESCO and ICH
30. Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage. Published by UNESCO and ICH
31. Implementation of the Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage. Published by UNESCO and ICH
32. Working towards a Convention. Published by UNESCO and ICH
33. Questions & Answers. Published by UNESCO and ICH

34. Identification and inventory of intangible cultural heritage. Published by UNESCO and ICH
35. Domains of intangible cultural heritage. Published by UNESCO and ICH
36. Fact sheets. Published by UNESCO and ICH

### **III. Internet saytlar**

10. <http://edu.uz>
11. <http://lex.uz>
12. <http://bimm.uz>
13. <http://ziyonet.uz>
14. <http://www.dsni.uz>
15. <http://music.edu.ru/catalog>
16. <http://artyx.ru/>
17. <https://www.unesco-ichcap.org/publications/>
18. <https://www.ich.uz>